

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

MUSIQIY TA'LIM YO'NALISHI

**MUSIQA O'QITISH METODIKASI VA XALQ CHOLG'U
ASBOBLARI KAFEDRASI**

**MAVZU: O'QUVCHILARNING MUSIQA MADANIYATINI
SHAKLLANISHIDA VOKAL – XOR TARBIYASINING O'RNI VA
AHAMIYATI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Gafforova Nasiba

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi M.B. Murodov

Bitiruv malakaviy ishi Musiqa o'qitish metodikasi va xalq cholg' asboblari kafedrasida bajarildi. Kafedraning 2014– yil 28–maydagi majlisida muhokama qilindi va himoyaga tavsiya etildi. (bayonnoma № 10)

Kafedra mudiri:

E.K.Djalilov

Malakaviy bitiruv ishi YakDAKning 2014 – yil ____ – iyundagi majlisida himioya qilindi va ____ foizga baholandi. (bayonnoma № ____)

YakDAK raisi:

A'zolari:

Samarqand – 2014

MUNDARIJA

KIRISH	3-6
I BOB: Musiqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o'rne.	
1.1. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida vokal – xor ishlarining maqsad va mazmuni.....	7-11
1.2. Vokal kuylashga o'rganishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan ishlar.....	12-22
II BOB: Vokal – xor malakalari vokal – xor tarbiyasining asosi sifatida.	
2.1. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchilarning vokal – xor malakalarini shakllantirish yo'llari	23-33
2.2. O'quvchilarning vokal – xor tarbiyasini shakllantirish yuzasidan amaliy tajriba ishlari mazmuni	34-45
Umumiy xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati.....	46-47
Ilovalar.....	

Mavzu: O'quvchilarning musiqa madaniyatini shakllanishida vokal – xor tarbiyasining o'rni va ahamiyati.

R I J A

KIRISH

I BOB: Musiqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o'rni.

1.1. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida vokal – xor ishlarining maqsad va mazmuni

1.2. Vokal kuylashga o'rganishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan ishlar

II BOB: Vokal – xor malakalari vokal – xor tarbiyasining asosi sifatida.

2.1. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchilarning vokal – xor malakalarini shakllantirish yo'llari

2.2. O'quvchilarning vokal – xor tarbiyasini shakllantirish yuzasidan amaliy tajriba ishlari mazmuni

Umumiy xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ruyhati

Ilovalar

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Milliy mustaqillik an'analari ona – O'zbekistonimizda keng tantana qilayotgan bir davrda yosh avlodni zamon talabiga javob beraoladigan mukammal bilimga ega bo'lgan ham nazariy, ham amaliy jihatdan hayotiy sinovlarga bardoshli bo'lgan komil inson qilib tarbiyalash vazifasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Prezidentimiz I. A. Karimovning ta'бири bilan aytganda "... milliy uyg'onish g'oyasini ruyobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo'lib qoladi".

Musiqaning madaniy hayotimizda keng o'rin tutgan va inson shaxsiyatining kamolotga yetishida muhim o'rin tutadigan san'at turidir. Eramizdan oldingi IV asrdanoq buyuk grek faylasufi Platon (aflotun) shunday degan edi: "Eng katta tarbiyaviy omil musiqiy san'atda emasmikan, zeroki ritm va garmoniya hammadan ko'proq shu vaqtda qalbga chuqur yo'l topadi va salobat baxsh etib, uni ko'rkam qiladiki, agar tarbiya to'g'ri yo'lga qo'yilgan bo'lsa, aks holda uning teskarisi bo'lib chiqadi".

Uning shogirdi buyuk Aristotil (Arastu) esa komil ishonch bilan mazkur fikrni quvvatlab yozadi: "Musiqaning kishi ruhining axloqiy tomonga ma'lum darajada ta'sir etadi, bas shunday ekan, u yoshlarning tarbiyalaydigan predmetlaridan biri bo'lib xizmat qilmog'i lozim".

Milliy madaniyatimiz bobokaloni Abu Nasr al – Farobiy esa musiqaning shaxs kamolotiga ijobiy ta'sirini quyidagicha ifodalaydi: "Bu fan (ya'ni musiqaning) shu ma'noda foydaliki, kimning fel atvori muvozanatni yo'qotgan bo'lsa, tartibga soladi, kamol topganlarni kamolotga yetkazadi va muvozanatda bo'lganlarning muvozanatini saqlaydi... Bu fan tanning sog'ligi uchun ham foydalidir". Shu bois buyuk Saddiy "Musiqaning inson qalbining yo'ldoshidir" deb bejiz aytmagan.

1. Karimov I. A. "Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" – Toshkent: Sharq. 1997 yil. 3 bet.

2. Antichnaya muzikalnoy estetika. Muzgiz. 1960 g 156 – 157 bet.

Sobiq Sovet davrida umumiy ta'lim maktablarida musiqa o'quv predmeti qilib joriy etilganligi va o'sha davrda bu sohada rivojlanish va ma'lum darajada tajribalar to'plangani, bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgani ijobiy hol albatta. Ammo uning asl milliy asosi, milliy pedagogik poydevorlari obyektiv (haqiqiy) tarzda ishlab chiqarilganicha yo'q. Dasturlar va darsliklar asosan rus maktablari dasturlarini tarjimaviy muvofiqlashtirish bilan kifoyalanib kelindi. Mustaqillik sharofati bilan milliy maktablarimizda musiqa ta'lim – va tarbiyasini chin milliy asosda qurib chiqish baxtiga muyassar bo'ldik.

Ma'lumki, musiqa o'qitish jarayonida amaliy faoliyatlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bularning (kuylash, chalish, raqs tushish, turli harakatlar bajarish va boshqalar) orasida jamoaviy kuylash (xor) yetakchi rol o'ynaydi, zero ki o'quvchi ayni holda jo'rnavoz va dirijyor ishoralariga amal qilayotgan holda o'z ovozi boshqaradi, o'rtoqlari va jo'rnavozga o'z ijrosini muvofiqlashtirib boradi, ayni vaqtda asarning musiqiy ohangi va badiiy obrazlarini idrok etib mantiqan anglab boradi va badiiy zavqlanadi, kuylash jarayonida vokal – xor malakalarini doimiy ravishda rivojlantirib borish va uni ilmiy asosda amalga oshirib borib o'quvchilarda musiqiy bilimlar doirasini tarkib toptirib borish hal qiluvchi maqsad vazifalardan hisoblanadi.

Ma'lumki, umumta'lim maktablarida musiqa darslarining asosiy faoliyati jamoa bo'lib, ya'ni xor bo'lib qo'shiq kuylash orqali kechadi. Xor bo'lib qo'shiq kuylash esa xonandalarni vokal kuylash uslubida kuylashlariga asoslanadi. Shu bois o'qishning dastlabki bosqichlaridan boshlab, tizimli sur'atda o'quvchilarni vokal kuylashga, ya'ni vokal – xor malakalarini shakllantirib borishga diqqat e'tibor eng asosiy ta'limiy vazifalar qatorida olib boriladi. Biz ushbu masalani ilmiy, nazariy, amaliy jihatlarini ilmiy tadqiqot predmeti sifatida o'rganishni o'z oldimizga maqsad qilib oldik va tadqiqot ishimiz mavzusini “O'quvchilarning musiqa madaniyatini

shakllanishida vokal – xor tarbiyasining o’rni va ahamiyati” deb nomladik. Muammoni ayni shu holatda maxsus tadqiq qilinmaganligi uning dolzarblik kasb etishini bildiradi.

Tadqiqot maqsadi: Jamoaviy ijro jarayonida vokal kuylashga o’rgatib borishning pedagogik asoslarini yoritib berish.

Tadqiqot obyekti: umumta’lim maktablarining musiqa madaniyati darslaridagi “jamo bo’lib qo’shiq kuylash” faoliyati.

Tadqiqot predmeti: musiqa darslarida o’quvchilarni vokal – xor kuylashga o’rgatishning mazmuni, ish shakl va usulidir.

Tadqiqot vazifalari:

1. Musiqa pedagogikasi, metodikasi va san’atshunoslikka oid adabiyotlar, tadqiqotlarni o’rganish orqali mavzuning nazariy asoslarini aniqlash;

2. O’quvchilarni vokal – xor kuylashga o’rgatishning amaliy holatini o’rganish;

3. Tajribali o’qituvchilar, bolalar xor rahbarlari bilan suhbatlar o’tkazish;

4. O’quvchilarni vokal – xor kuylashga o’rgatishning o’rta maktab dasturiga mos tizimini ishlab chiqish.

Tadqiqot metodlari: pedagogik kuzatuv, tahlil, savol – javob, suhbat, anketa – so’rov, umumlashtirish, xulosalash, matematik statistika.

Tadqiqotning nazariy va amaliy ahamiyati: musiqa o’qitish nazariyasi va metodikasi musiqa darslarida o’quvchilarni vokal kuylashga o’rgatishga yo’naltirilgan o’ziga xos nazariy qarashlar va yondashuvlar bilan boyitiladi.

Tadqiqot natijasiga ko’ra ishlab chiqilgan metodik tavsiyalar umumta’lim maktablarida jamoaviy ijrochilik faoliyati samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning metodologik asosi. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida" gi qonuni, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi, umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim standarti va o'quv dasturi, Umumiy o'rta ta'limning musiqa darsliklari, musiqa nazariyasi, metodikasiga oid ilmiy tadqiqotlar, uslubiy manbalar, ilg'or pedagogik tajribalar va me'yoriy xujjatlar, shuningdek, san'atshunoslik, pedagogik – psixologik manbalar tashkil etadi.

Himoyaga olib chiqiladigan holatlar:

- o'quvchilarni vokal – xor kuylashga o'rgatishning zamonaviy shakl va usullarini ishlab chiqishning dolzarb pedagogik muammo ekanligi;

- o'quvchilarni vokal – xor kuylashga o'rgatishga doir bilim, ko'nikma va malakalarning didaktik asoslari;

-o'quvchilarni vokal kuylashga o'rgatish jarayonida o'ziga xos yondashuvlarga doir metodik tavsiyalar va ularning samaradorligi.

Tadqiqotning tarkibiy tuzilishi: Bitiruv Malakaviy ishimiz Kirish, ikki bob, to'rt paragraf, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyhatidan iborat.

I BOB: Musiqa madaniyati darslarida jamoaviy ijrochilik faoliyatining tutgan o'ri.

1.1. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida vokal – xor ishlarining maqsad va mazmuni.

Musiqa darslari jarayonida o'qituvchilarning vokal – xor malakalarini rivojlantirishda ularni ham nazariy ham amaliy kuylash jihatdan savodxonligi oldingi bolalarda bayon etganimizdek har bir vokal qo'shiq, mashq yoki (ashula) ni o'rganish va kuylash jarayonida ta'kidlab o'tilgan bilim va malakalar hosil qilishga qaratilgan ish usullari va shakllaridan unumli va o'z o'rnida foydalanishda ko'p jihatdan bog'liqdir.

O'qituvchi yoki “xor rahbari” o'rganilayotgan har bir qo'shiqni o'quvchilarga tanishtirganda uning turi (xalq yoki, kompazitorlik asari), janri, (qo'shiq, lapar, terma, alla, ashula yoki xor asari), bular birinchi guruh nazariy bilimlar doirasiga kiradi.

Lad – tonallik, sur'ati, kalit belgisi, dinamik belgilar, o'lchovlar, ularga dirijyorlik sxemalari, registrlar, kuylash usullari (mahaliy uslublar ko'zda tutiladi) kabilarga alohida e'tibor berish lozim. Bular o'z navbatida musiqa savodi guruhiga kiradi. Qo'shiq (yoki xor asari) ning mualliflari ular haqida qisqa ma'lumotlar; tuzilishi (bir yoki ikki qismli) necha ovozliligi, daromadi, avjlari, buromadi, so'z tuzilishlari, badiiy mazmuni va boshqalar. (bular asar tahliliga kiradi) va nihoyat ijrochilik talablari ovozlarni bilish, ovozlarni sozlash cholg'u jo'riga tushib ovozlarni ansambilga tushurish dirijyorning qo'l ishoralariga qarab amal qilish, notaga qarab kuylab, uning barcha belgilariga hamma bir xilda amal qilishi, nafasni vaqtida rejali olib, rasamati bilan sarflash baravar qo'shib, bir vaqtda tugatish, bir va ikki ovozlardagi ovoz kuchlarining dinamik mutanosibligiga erishish va nihoyat o'z ijrolariga badiiy baho berish, yutuq – kamchiliklarini aniqlash va boshqalar. Ijrochilik bilimlari doirasiga kiradi. Ko'rinib turibdiki, mazkur bilimlar integral

kompleks bilimlar doirasiga kirib, ular musiqaning turli fanlar (musiqa san'ati, musiqa nazariyasi, garmoniya, musiqa tahlili, dirijyorlik, xorshunoslik, cholg'ushunoslik va boshqalar) tarkibida ilmiy asoslangan va musiqa amaliyotida keng qo'llanib kelinayotgan atamalar va tushunchalardan iboratdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, musiqa muallimi (yoki xor rahbari) musiqadagi kasbiy fanlarning barchasidan umumiy (ammo yetarli darajada) kuylash jarayonida ulardan o'rinli darajada foydalani oladi. Shu o'rinda musiqa o'qituvchisiga bo'lgan talablarni eslash foydadan holi bo'lmaydi.

Umumiy talablar: o'qituvchi pedagogika, psixologiya, bolalar fiziologiyasi, etika, estetika, she'riyat va adabiyot sohasidan kerakli darajada nazariy va amaliy bilim malakalar egasi bo'lmog'i lozim.

Maxsus talablar musiqa o'qituvchisi musiqa fanlarining barcha sohalarining (nazariy va amaliy) dan nazariy va amaliy bilim malakalariga ega bo'lmog'i lozim. U ham cholg'uchi, ham xonanda, ham xor dirijyori, ham jo'navozchi, musiqa nazariyotchisi, tarixchisi sifatida amal qilmog'i lozim. Musiqa o'qituvchisining ijodkorligi shundaki, u bir soatlik darsiga ssenariya muallifi uning artist ijrochisi va rejissyori sifatida ish tutadi.

Demak, yuqoridagi sifatlar qo'shiq o'rgatish jarayonida o'quvchilar vokal – xor malakalarini shakllantirish ishi ularda yangi – yangi nazariy bilimlarning to'planib borishi, natijada ularning musiqiy hayotida doimiy ravishda qo'llanilib boruvchi “bilimlar banki” ning vujudga kelishi bilan ijobiy hal bo'lish lozim ekan. Bunda o'qituvchining “bilimlar banki” ning asosiy manbai musiqa madaniyati darslari bo'lib, bilimlar standarti bo'yicha 1 – 7 sinflarning har bir sinf o'quv jarayonida dasturda va Davlat standartida belgilangan aniq bilim – malakalar me'yori asosida shakllanib boradi. Mazkur “Bank” tarkibidagi bilim – malakalar darsning barcha faoliyat turi (jumladan sinfdan tashqari musiqa to'garaklarida ham) foydalanib boriladi va

o'z navbatida mazkur faoliyat mazmunidan o'quvchi yangi atama yoki tushunchaga ega bo'lib, "Bank" tarkibi yanada boyib boradi. Shu narsani alohida ta'kid etish lozimki, bilim va malakalar faol muhokamadan so'ng o'quvchi yangi elementiga ega bo'lib, u amaliy faoliyat (kuylash, chalish, harakatlar) jarayonida chuqur his etib, anglanib olinadi va xotiradan mustahkam o'rin egallaydi. Eng muhimi ushbu bilim – tushunchalarga tayanib musiqiy faoliyatlarni to'g'ri bajaradi. Eng muhimi yangi bilim – tushuncha keyingi mashg'ulotlarda doimiy ravishda qo'llanilib (takrorlanib) borilsagina u turg'un bilimga va amaliy vositaga aylanadi. Bunda musiqa idroki va mantiqiy (shu bilan birga obrazli) fikrlash muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa mushg'ulotlar jarayonida darsning barcha faoliyatlari (kuylash, tinglash, chalish, raqs, musiqali harakatlar ijodkorlik) jarayonida musiqa faqatgina idrok etish bilan amalga oshadi. Musiqa darslari shu xususiyati bilan boshqa darslardan tubdan farq qiladi. Agar matematika yoki tasviriy san'at asarlari asosan ko'rish bilan idrok etib aniqlanilsa, musiqa esa asosan eshitib, tinglab idrok etish bilan aniqlanib o'zlashtiriladi. Idrok jarayonida diqqat shunchalik faol bo'lishi lozimki, diqqat bo'sh bo'lgan joyda asarning o'sha bo'lagi idrok etilmay o'tib ketadi. Shu bois ko'zi ojizlardan ko'proq mashshoq va xonandalar yetishib chiqadi. Musiqa aniq vaqt ritmida yangraydi. Shu bois idrok ham o'sha vaqt ritmiga hamohang jo'r bo'lib tushsagina murod hosil bo'ladi.

Bolalar vokal – xor jamoalarida olib boriladigan o'quv – tarbiya ishlari o'quvchi – yoshlarni har tamonlama yetuk, barkamol insonlar qilib tarbiyalashga yo'naltirilgan bo'ladi. O'rganilayotgan har bir qo'shiq tarbiyaviy ta'sirchanlikka ega bo'lishi, o'quvchilarda ona vatanga, ona tabiatga. Xalq qadriyatlari bo'lmish bayramlar marosimlar, muqaddas sanalarga muhabbat, ota – onani hurmat qilish, insoniy fazilatlarga hurmat va ularni qadrlash tuyg'ularini tarbiyalaydi. Musiqa savodi ham musiqa

tarbiyasining bir qismi bo'lib, jamoaning yaxshi muvaffaqiyatlariga erishish uchun zarur omillardan hisoblanadi. Musiqa savodi ham mashg'ulotlar jarayonida tizimli tarzda olib borilishi kerak. Bundan maqsad – o'quvchilarni xor uchun yozilgan yoki jo'rsiz kuylashga moslashtirilgan bolalar xalq qo'shiqlarini nota bilan ifodali kuylashni, interval va akkordlarni sof intanasiya qilib, solfedjiolash orqali qo'shiqni o'rganish va kuylashga o'rgatishdir. Bu boradagi ishlar qo'shiq o'rganish jarayonini tezlashtiradi, qatnashchilarni nota o'qish va kuylash malakalarini oshiradi.

Endi musiqa madaniyati darslari asosida shakllanishi lozim bo'lgan bilimlarning asosiy manbai yil va chorak mavzulari ekanligini unutmaslik lozim. Gap shundaki, o'rganiladigan har bir asar o'zining musiqiy tuzulishi, janri va badiiy mazmuni bilan chorak mavzuidan kelib chiqishi o'zining pedagogik maqsadlari bilan mavzuga bo'y sinishi va uni yoritishga xizmat qilishi lozim bo'ladi. Yil va chorak mavzulari esa oldindan murakkabga qarab masalan, musiqa tovushi, uning baland – pastligi, skripka kaliti, oddiy qo'shiq va boshqalardan 6 – 7 sinflarda lad va tonallik, ko'p ovozlilik, mahaliy uslublar, ashula, katta ashula, doston, maqomlar, mumtoz (klassik) musiqa, zamonaviy musiqa, xor, simfoniya, opera, balet kabi jiddiy atamalarning mantiqini bilishgacha yetib boradi. Bunda soddadan murakkabga va ma'lumdan noma'lumga o'tish didaktik prinsipga amal qilish lozim bo'ladi.

Ta'lim jarayonida to'planadigan bilim doirasi (banki) ni ikki toifaga bulish mumkin:

1. Musiqa asarlarini musiqiy ohanglari vositasida xayot, orzu-umid, his-tuyg'u, Vatanga, farzandga, ota-onaga mehr-muhabbat, yoki tabiat go'zalligidan zavqlanish aks ettirilgan san'at asari ekanligini anglab bilishga yordam beradigan bilimlar.

2. Musiqa asarlarini tarkibiy qismini anglab olishga, ular ma'lum tovushlar, ohang va ifodaviy detallardan tarkib topganini bilishga yordam beradigan nazariy bilimlar.

Birinchi tur bilimlar asarning badiiy mazmunini va badiiy obrazi (qiyofasi) ni anglashga yordam bersa, ikkinchi tur bilimlarga esa asarni nazariy-ilmiy jixatdan tahlilan anglab olishga yordam beradi

Ushbu bilimlarning salmoqli xissasi esa kuylash jarayonida o'quvchilarning xor malakalarining shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Bu bilimlar o'qituvchi (raxbar) uchun tushuntirish va xorni boshqarish uchun eng asosiy muomila vositasi bo'lib xizmat qiladi. Bu o'rinda asar mualliflari (kompazitor va so'z muallifi) haqida beriladigan ma'lumotlar ham asarning individualligi, o'ziga xos uslublarini anglashga yordam beradi.

Xullas, musiqa haqidagi nazariy va amaliy bilimlar doirasini o'rgatishga o'qituvchi va o'quvchilar orasida bir tomondan aloqa (muomila) vositasi bo'lib, musiqiy til vositasida xizmat qilsa, ikkinchi tomondan o'quvchilarning musiqa savodxonligini tarkib topiradi va uchunchi tomondan o'quvchilarga eng asosiy pedagogik maqsad musiqa madaniyatini vujudga keltirishda asosiy omil hisoblanadi.

1.2. Vokal kuylashga o'rganishning dastlabki bosqichida amalga oshiriladigan ishlar.

Boshlang'ich sinflarda, ya'ni birinchi sinfdan boshlab o'quvchilarni zamonaviy ijrochilikka o'rgatish eng avvalo ularda vokal – xor tarbiyasini to'g'ri yo'lga qo'yishni taqazo etadi. Shuning uchun musiqa o'qituvchisi dastlabki mashg'ulotlardan o'quvchilarga vokal kuylashga doir ko'nikma, malakalarni shakllantirib borishga asosiy e'tibor qaratib borishi lozim bo'ladi.

Xor to'garagida bolalarni vokal kuylash ko'nikmalari va malakalarini shakllantirish bevosita vokal – xor mashqlari yordamida amalga oshiriladi. Bu o'z navbatida ikki maqsadni ko'zda tutadi. Birinchisi bolalarning ovoz a'zolarini ishchan holga keltirish (qizdirish), ikkinchisi vokal – kuylash texnikasini rivojlantirishni. Shuning uchun har bir mashg'ulot oldidan vokal – xor mashqlaridan o'z o'rnida ehtiyotkorlik va ustalik bilan foydalanilganda u jamoaviy ijrosiga xos barcha sifatlarni shakllanishiga olib keladi. Bunda nafas olish, uni tejab sarflash, tovush xujumlari, auftakt, dinamik belgilar, temp, deksiya, artikulyasiya, sof entonasiyaga erishish kabilar ko'zda tutiladi. Shuningdek mashqlardan qo'shiqning ijrosi qiyin joylarini o'zlashtirish, ko'p ovozlilikni yo'lga qo'yish, xotirani rivojlantirish kabi maqsadlarda ham foydalanish mumkin. Har bir mashg'ulot oldidan qo'shiq aytish mashqlari uchun 7 – 10 minutgacha yoki undan ham ko'proq vaqt ajratish mumkin. Maktab o'quvchilarini ovoz imkoniyatlari, ya'ni ovoz kuchi, ovoz pardalarini g'oyat nozik va yetarli darajada shakllanmaganligini e'tiborga olinganda ham vokal – xor mashqlarisiz to'g'ridan – to'g'ri ashula aytishga kirishish metodik va pedagogik jihatdan to'g'ri bo'lmaydi va u salbiy oqibatlarini ham keltirib chiqarishi mumkin. Xor rahbari vokal – xor mashqlari uchun turli xarakterdagi mayin (legato), uzib – uzib aytiladigan (stakkato), ta'kidlab aytiladigan (markato) hamda so'zli, so'zsiz mashqlarni nota nomlari bilan

yoki soʻz boʻgʻinlari lya, do, da, de, di, ma, mi, me, mo, mu, yo, u kuylatish mumkin. Mashqlar oldidan nota nomlari bilan keyin soʻz boʻgʻini bilan va baʼzan yoddan bajarilishi mumkin.

Ovozlarni “qizdirish” va qoʻshiq aytishga tayyorlash barcha ishtirokchilar bilan hamda alohida – alohida partiyalar bilan oʻtkazilishi mumkin. Mashqlar ogʻizni yumib va ovoz bilan boʻlishi mumkin.

Ishtirokchilarni qoʻshiq aytishga tayyorlash uchun qoʻllaniladigan mashqlarni rahbar oldindan tayyorlab qoʻyadi. Mashqlar fortepiano joʻrligida va joʻrsiz holatda, qatnashchilar quyi sinf oʻquvchilari boʻlsa, ularni musiqa savodi va nota oʻqish malakasi yetarli darajada boʻlmaganligi uchun rahbarning ovozini eshitish va qaytarish yoʻli bilan mashqlar bajariladi. Ashula va xor jamoasini eng birinchi navbatda sof unison kuylashga oʻrgatish kerak. Keyinchalik ikki ovozli mashqlar kuylashda bir ovozni bir notada ushlab turish va ikkinchi partiya yuqoriga tamon kuylashi (turli choʻzimlarda) va keyingi navbat partiyalar bu mashqni oʻrin almashib bajarishlari, kichik qoʻshiq partiyalaridan ikki ovozli joylarni kuylash kabilar bilan davom ettirish mumkin. Koʻp ovozlikka oʻtishning boshlangʻich bosqichida koʻp ovozli qoʻshiq namunalarining kuyi, ohang intonasiya va xalq polifoniyasi unsurlari mavjud boʻlgan bolalar oʻyin qoʻshiqlari, folklor namunalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bunda xor uchun qayta ishlangan oʻzbek xalq bolalar qoʻshiqlari juda qoʻl keladi. Shu oʻrinda R. Gʻ. Qodirovning “Boshlangʻich maktabda koʻp ovozli kuylash” oʻquv qoʻllanmasida keltirilgan vokal – xor mashqlaridan, “musiqa madaniyati” darsliklaridagi vokal – xor mashqlari namunalaridan foydalanish mumkin. Yuqoridagi oʻquv qoʻllanma ashula va xor toʻgaraklari rahbarlari faoliyati uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tajribalar shuni koʻrsatadiki, oʻquvchilarning nota yozuvlari, koʻp ovozlilikni oʻzlashtirishlarida yozuv kuylash grafik tasviriga qarab kuylashlari imuhim ahamiyat kasb etadi.

Masalan: bolalar bir kuyni yuqoriga, ikkinchisi pastga, uchunchi ovozni esa bir joydagi harakatitasvirini ko'rib erkin kuylaydilar. Ko'povozlilikni yaxshi o'zlashtirishda kanonlar muhim vosita bo'lib, buni maktab musiqa pedagogikasi bilan shug'ullangan ko'plab olimlar, pedagoglar va musiqachilar e'tirof etishgan.

Ko'pgina musiqachi pedagoglar (Sh. Ro'ziyev, N. Sharafiyev) va taniqli xor rahbarlari (V.S. Popov, O. Sokolova, A.I. Yevsev) ovoz sozlashni oktava – unisonidagi mashqlardan boshlashni tavsiya etishadi. Keyin ikki ovozli mashqlar o'tiladi. Shu tariqa ko'povozlilikka, garmonik va polifonik tuzumlarga o'tiladi.

Bir mashqda legato, non legato, stakkato, kabilarni ham qo'llash orqali vokal – xor texnikasiga oid vazifalar bajariladi. Mashqlar kuylanganda dastlab ular sekin qisqa o'rganiladi va asta – sekin tezlashtirib boriladi.

Boshlang'ich sinflarda vokal – xor malakalarini tarbiyalash eng murakkab va shu bilan birga uzoq vaqt davomida shakllanadigan jarayonni talab qiluvchi dars faoliyati hisoblanadi. Vokal – xor malakalari o'quvchilarni jamoa (xor bo'lib) bo'lib kuylashga o'rgatadi. Birinchi darslardan boshlab o'qituvchi o'quvchilarni ashula aytish holati, (xor ustanovkasi) – bilan tanishtirib, shunga o'rgatib boradi. Bu – partada o'tirib yoki turib kuylaganda bosh qo'l va oyoqlarni qanday tutish lozimligi, kuylaganda gavnani to'g'ri tutish, yelkalarini erkin, iyakni ortiqcha ko'tarmasdan, bo'yinni va boshni to'g'ri ushlab, qo'llarni erkin holatda pastga tushurish yoki kaftlarini tizzalari ustiga yengil qo'yib, egallamasdan o'tirish va oyoqlarni yelka kengligida erkin qo'yish holatlari ustida ish olib boradi. Bu har bir darsda izchil davom ettirilib boriladi. O'quv yili davomida nazorat qilib borilishi malaka va ko'nikmalarni hosil qilishiga olib keladi.

Ma'lumki, kuylash nafasni to'g'ri olish va undan unumli foydalanish asosida amalga oshadi. Kichik yoshdagi bolalar nafasni ko'krak qismidan

olishlari sababli kaftlarini ko'tarishlari, jumlani tugatmasdan yoki so'zni bo'lib nafas olishlari tabiiydir. Shuning uchun yelkalarini ko'tarmasdan, jumla hamda so'z o'rtalarida nafas olmaslikka alohida e'tibor berish lozim. Nafas ustida ishlaganda bolalar diqqati tovushlarning chiroyli jaranglashiga va bunda nafasni gul hidlaganday tarzda olish haqida tushunchalar beriladi.

Bolalar vokal mashqlar va qo'shiqlarni kuylaganlarida o'qituvchining qo'l harakatlariga qarab nafas olishga va uni jumla oxirigacha yetkazishlariga odatlantirish kerak. Asta – sekin dirijyorlik holatlari (diqqat, aif takt, ijroni boshlash, ijroni tugallashga) odatlantirib boriladi. O'qituvchining ishorasiga qarab uning talablarini bajarish jarayoni o'quvchilarni bilvosita to'g'ri nafas olish va kuylashga ham tayyorlab boradi. Bolalar nafasni imkoniyatini hisobga olib o'qituvchi mashq va qo'shiqlardagi nafas olinadigan joylarni oldindan belgilab olishi yaxshi usullardan hisoblanadi. O'quvchilarning kuylash iqtidorini shakllantirish va ustirish ishlari birinchi navbatda musiqa tovushlarini diqqat bilan eshitish va ularni aniq intonasiya qilishlarini rivojlantirish asosida amalga oshiriladi. Bu yoshdagi bolalarda qo'shiqni kuylaganda ko'proq nutq tovushlaridan foydalanishga intilish hollarini kuzatish mumkin. Shuning uchun ham bu ishlarni birinchi navbatda bir tovushni cho'zib (legato) kuylashga o'rgatishdan boshlamoq zarur. Mashqlar:

1. Mayin ohangdor.

2. Mayin ohangdor.

3. Mayin ohangdor.

Mazkur mashqlarda o'qituvchilarning qo'liga qarab, "sol" tovushi osoyishta, ammo o'z o'rnida nafas olib uni tekis chiqarish bilan kuylanadi. Ovoz sifati nafas maromiga bog'liqdir.

O'quvchilarni kuylashga qiziqtirish, ko'p jihatdan o'rganilmaydigan har bir mashq yoki qo'shiqni o'qituvchi tomonidan chiroyli qilib kuylab borilishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. Chunki yosh bolalar bilan olib boriladigan vokal – xor ishlari ko'pincha o'qituvchi ovoziga taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Shuning uchun ham o'qituvchining o'zi chiroyli kuylay olishi va o'quvchilarni ham chiroyli kuylashlari, so'zlarni chiroyli talaffo'z qilishlar, mayin, tekis kuylashlari ustida muntazam ish olib borishi zarur. Bunda eng avvalo ularga bir tovushni mayin ovozda cho'zib kuylashga o'rgatishdan boshlanadi. Bu mayinlikni g'ijjak yoki skripka kamonini tortganday qo'l harakatlari qilish orqali ifodalab borish bolalarga ijroning karakterini yanada ravshanroq ochib berishga imkon beradi. O'qituvchi o'quvchilarning eng qulay yengil tovushlariga mos primarzona (sol, lya) ishchi diapozon mi, si, va umumiy diapozon re, si, do ekanligini unutmasligimiz lozim. Bosh rezanatorlarga asoslangan falsetga yarim bo'lgan ovozlarda kuylaydilar. Ovoz hosil qilish ustida ishlaganda bu ularni yagona kuylash uslubi ekanligini esdan chiqarmaslik kerak. O'qituvchi o'quvchilarga kuylash uslubini ko'rsatib berayotganda o'zi aynan shu ovozda kuylashga harakat qilishi, xususan, erkak o'qituvchilar buni falset orqali ko'rsatib berishlari tavsiya etiladi.

Boshlang'ich sinflarda (xususan, birinchi, ikkinchi) bolalarning mayin atakada kuylashlari ovozning muloyim va yoqimli bo'lishini ta'minlaydi.

Qattiq atakadan foydalanish bolalar ovozigga qo'pollik va dag'allik olib kelishi mumkin. Qichqirib, zo'riqib kuylash esa vokal – xor malakalarining me'yorida shakllanishiga xalaqit beradi, bolalar ovozigga putur yetkazadi.

Vokal kuylashda tovush hosil qilishi, talaffo'z (diksiya) ning to'g'ri yo'lga qo'yilishi ayniqsa muhimdir. Talaffo'zda artikulyasiya organlari (lab, til, jag')ning faol harakatidagi hamjihatlik buning natijasida poetik nutq aniq, ohangdor, mazmunan ifodali talaffo'ziga erishildi.

Bolalar nutqida ziflik, noaniqlik, ovoz apparatini siqib gapirish kabi nuqsonlar uchraydi. Bunday bolalarga e'tiborni kuchaytirish va ular bilan individual ish olib borish lozim.

Eng muhimi bolalarni mashq va qo'shiqlar matnining vokal talaffo'ziga o'rgata olish zarur.

Qo'shiq kuylashga o'rgatishda unli tovushlarni to'g'ri shakllantira olish ayniqsa katta ahamiyatga egadir. O'qituvchining vazifasi unli tovushlarni ko'proq kuychan, cho'zib kuylashga, undosh tovushlarni qisqa va aniq talaffo'z etishga erishishdan iboratdir.

Vokal mashqlari tanlanganda dastlab oddiy va kichik qo'shiq parchalaridan foydalanish yaxshi natija beradi. Bu vokal – xor ishida davomiylikni va oddiylikdan murakkabga o'tish ishini osonlashtiradi. Maxsus tanlangan, ixcham va qulay mashq – qo'shiqlar vokal – xor malakalarini maqsadga muvofiq shakllantirishga yordam beradi.

Mazkur bob bo'yicha bildirilgan fikr – mulohazalarimizga umumiy xulosa sifatida ta'kidlash joizki, o'quvchilarda vokal kuylash ko'nikma va malakalarini tarkib toptirish, o'quvchilarda jamoaviy ijrochilikda, xor ijrosini sifatli sadolanishiga erishishlarida asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Vokal – xor tajribasida ovozni vokal kuylash uslubiga tushurish “ovozni qo'yish (postanovka golosa)” deb nomlanadi. Bu ibora xonanda – qo'shiqchilar tayyorlashda ovozni to'g'ri hosil qilish, tovushni yo'llash, ovoz

apparatini to'g'ri holatga keltirish, nafasni to'g'ri olish, chiqarish, tekisi sarflash, unli – undosh tovushlarni talaffo'z qilish, ovozni “yarim yopiq” – “dumaloq” qilib sadolantirish kabilarni nazarda tutadi.

Vokal tovush hosil qilish va kuylashning qiyin tomonlaridan biri – o'ziga xos tovush hosil qilish va uni shakllantirishdir. Bu ish maxsus vokal mashg'ulotlarida bajarilganidek, musiqa darslari, to'garaklar faoliyatida ham olib boriladi. Tovushning qandy shakllanishi (yumshoq yoki qattiq bo'lishi) “niqobdor” (ya'ni og'iz bo'shlig'ining kengayishi va “gumbaz”) shaklini olishi, jarangdor sadoni yuqori (bosh), o'rta (aralash – bosh va ko'krak) pastki registrlarda (ko'krak) bo'lishi bilan xarakterlanadi. Xor ijrosida “ochiq” (oq tovush) bo'lishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

O'qituvchi “ovoz qo'yish” bilan bog'liq ishlarda har xil usullar qo'llashi mumkin. Masalan, unli larni talaffo'z etganda og'izni yarim yopiq holda, tovushni yig'ib, “a” tovushini yarim “o” ga yaqinlashtirish, “i” unlisini “ы” ga o'xshatib ijro etilishisha erishishi lozim.

Xor ijrochiligida vokal tarbiyasining asosiy shartlaridan biri registrlarni teksilash va tovushlarning aralash (mikst) sadosiga erishi hisoblanadi.

Registrdan registrga, ya'ni pastki, o'rta, yuqori (bosh) registrlarga o'tishda ovoz o'zgaradi. Shuning uchun barcha registrlarda ovozni bir tekis, silliq chiqarishga erishish lozim.

Yarim yopiq (niqobdor) ovozda kuylash asosan akademik ijro uslubiga mansubdir. Bu ko'nikmani o'zlashtirish uchun yuqori tanglay maksimal ko'tarilib, tovush yarim yopiq holda og'iz bo'lig'idan chiqishini va bunda artikulyasiya apparati (og'iz, lab, tish, til, tanglay) birdek harakatga kelishiga erishish kerak.

Bu malakalar xor bilan ishlashda doimiy ravishda kuzatilib, takomillashtirib borilishi lozim. Zotan xor ijrosini muvoffaqiyati vokal “postanovkasi”, soz, ansambillikni to'g'ri yo'lga qo'yilishi bilan baholanadi.

O'quvchilarni qo'shiq kuylashga o'rgatish ularni musiqiy – estetik tarbiyasining boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda avvalo o'quvchilarni har qanday vazifa topshiriqni tushungan holda bajarishga o'rgatish lozim bo'ladi. Qo'shiq kuylash faoliyatida o'quvchilarni vokal kuylash qoidalari bilan tekshirib borish, birinchi mashg'ulotlardan qo'shiq kuylash pastanovkasi haqida tushunchalar berish kerak. Bunda qo'shiq kuylash holati, nafas olish va uni sarflash, og'izni qanday ochish, unli – undosh tovushlarni qanday talaffuz qilish, tovushni yo'llash, ligato kuylash, pianino kuylash, tovushni sekindan balanlashtirish, qattiqdan sekinlatish, stakkato kuylash, zanjirband nafas olish, kanon usulida kuylay olish, dirijyorlik ishoralariga qarab kuylash, auf, takt, ijroni boshlash, ijroni tugallash, asar dinamikasini, harakterini tushunish bularning barchasi chidam bilan aniq maqsad va har bir dars uchun belgilangan dars maqsadi va vazifalari rejimiga bog'liq holda olib borilishi lozim.

Qo'shiq kuylashda eng muhimi nima? Albatta bu qo'shiq kuylashga monand ovozdir. Shuning uchun ham mashg'ulotlarda bolalar ovoz apparatini ehtiyot qilish, uni asrash to'g'risida tushunchalar, maslahatlar berish, qo'shiq kuylash vaqtida tomoqqa zo'r bermaslik, qichqirmaslik, ovozni zo'riqtirmaslik yengil va yorqig ovoz hosil qilish qoidalari bilan tanishtirib borish kerak bo'ladi. Suhbat davomida qo'shiq kuylash qoidalari va talablarini ifodalovchi tablisalar, fotosuratlar, plakatlarni namoyish qilish bilan har bir holatni o'qituvchining amaliy ko'rsatib berishi katta ahamiyat kasb etadi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi "musiqqa madaniyati" fanini o'qitish amaliyotidan bizga ma'lumki, yuqori sinflarga kelib o'quvchilarning musiqiy dunyoqarashlari ancha shakllangan, qo'shiq kuylash, musiqani idrok etish, tahlil qilish bo'yicha nazariy va amaliy bilim va malakalari rivojlangan bo'ladi. Shu bois bu sinflarda o'qituvchilardan bolalarni yosh va individual

xususiyatlariga ko'ra boshlang'ich sinflarga nisbatan bir oz yangicha yondashuvlar asosida darslarni tashkil etish talab etiladi. Bu o'rinda eng muhimi pedagogik va psixologik omillar bo'lib ular dars samaradorligini ta'minlashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik va psixologik omillar bo'lib ular dars samaradorligini ta'minlashda yetakchi ahamiyat kasb etadi. Pedagogik va psixologik omillar deganda nimani tushuniladi? Ular qanday zaruriy elementlarni o'z ichiga oladi. Shu haqda qisqacha to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida eng avvalo musiqa darslarini to'g'ri yo'lga qo'yish va tashkil etish uchun zarur shart – sharoitlarni, imkoniyatlar mavjudligini taqazo etadi. Pedagogik shart – sharoitlar to'g'risida batafsilroq to'xtalib o'tamiz.

- maktabda musiqa darslarini to'g'ri tashkil etilishi uchun avvalom bor, maktablardagi musiqa mashg'ulotlari o'tish uchun mo'ljallangan sinf xonalari talab darajasida jihozlangan bo'lmog'i lozim. Ya'ni ular maxsus jihozlangan musiqa o'quv xonasi sifatida alohida xona bo'lib, keng, yorug', harakatlanish uchun qulay bo'lishi, maxsus stol – stullar bilan, matn va nota yozuvi uchun mo'ljallangan doska (nota chizig'i bo'lgan) musiqa cholg'ulari (fortepiano albatta bo'lishi shart) musiqa tinglash uchun magnitafon yoki musiqiy markaz, audio – vedioye moslamalari, televizor, hozirgi davr uchun eng muhim bo'lgan kompyuter, musiqa savodi bo'yicha turli ko'rgazmali qurollar (mashqlar, sxemalar, chizmalar, tasvirlar, plakatlar, portretlar) qo'shiqlar to'plamlari, solfedjio va darsliklar bilan ta'minlangan bo'lishi lozim.

Ushbu jihozlar mavjud bo'lgandan so'ng ular estetik talablar darajasida, dars faoliyatlari bo'yicha zarur talab va ehtiyojlarga muvofiq joylashtirilishi lozim. Chunki, o'quvchilar sinfga kirganlarida o'zlarini xuddi musiqa va musiqiy tovushlar olamiga kirgandek his qilishlari kerak. Buning uchun sinf devorlarida taniqli o'zbek, rus, chet el kompazitorlarining

portretlari, mavzularga oid musiqiy yozuvlar (plastinka, magnit tasmasi, disklar) tuvaklrvdv gullar, derazalarda imkon qadar oq pardalar, musiqiy obrazlarni ta'riflovchi suratli plakatlar va hokozolar bilan bezatilgan bo'lmog'i lozim. Umuman olganda sinf xonasiga kim kirishidan qa'iy nazar ular musiqaning sehrli olamiga kirib qolgandek o'zini sezishlari, estetik zavq, his – tuyg'ular og'ushida bo'ilishi kerak.

O'qituvchi dars jarayonida musiqiy qobiliyati sust, o'zlashtirishi past darajada bo'lgan o'quvchilarni oldingi qatorlarga, aksincha musiqani yaxshi eshitaoladigan (sulxi yaxshi rivojlanmagan) kuylash, tahlil qilish, bilim va tushunchalarni ongli o'zlashtiraoladigan o'quvchilarni orqa qatorlarga joylashtirish lozim. Ayrim hollarda yaxshi o'zlashtiradigan, intiluvchan, tirishqoq bolalarni yoniga musiqiy eshituvchi, xotirasi, intonasiya qilishi sust va dangasa o'quvchilarni o'tqazib qo'yishi yaxshi natija beradi. Shuningdek, 7 – sinflarda ayniqsa o'quvchilarni yosh xususiyatlariga alohida e'tibor berish lozim bo'ladi. Chunki, bu yoshdagi bolalarni uncha – muncha oddiy narsalar o'ziga jalb qilavermaydi. Shuning uchun bu sinfda o'quvchilarni erkin fikrlashga, bahslashishga, mustaqil topshiriqlar bajarishga, madaniy ommaviy tadbirlarga jalb qilish yaxshi natija beradi. Musiqa tinglangandan keyin o'quvchilarga o'z taassurotlariga tayangan holda rasmlar chizdirish o'quvchilarni musiqa darslariga bo'lgan qiziqishlarini yanada orttiradi.

Umumta'lim maktablarida musiqa ta'limini muvaffaqiyatli amalga oshirishning yana bir muhim omili o'quvchilar tomonidan musiqiy – nazariy bilimlarni o'zlashtirish jarayonini psixologik xususiyatlarga doimiy ravishda e'tibor berib borishdir.

Buyuk rus olimi I. P. Pavlov ta'limotiga ko'ra, inson kechirayotgan turli his – tuyg'ular bosh miya yarim sharlari po'stloq qismining faoliyati asosida yuzaga keladi. Atrof – muhitning inson organizimiga doimiy ta'siri va organizmning bu ta'sirlarga qonuniy javob reaksiyasi natijasida asta –

sekin ma'lum bir munosabatlar tizimi vujudga keladi. I. I. Pavlov buni – dinamik stereotip, deb atagan edi. I. Pavlovning dinamik stereotip haqidagi ta'limoti kishidagi hissiyotlarning fiziologik va psixologik tabiatini chuqurroq o'rganishda katta ahamiyatga egadir. Gap o'quvchilarda estetik hissiyotni tarkib toptirish haqida borar ekan, e'tiborni avvalo, ikki muhim masalaga qaratishimiz lozim:

1. O'quvchilarda estetik hissiyotning paydo bo'lishi uchun shart – sharoitlarni yaratish;

2. O'quvchilarni san'at asarlarini go'zallik nuqtaiy – nazaridan baholashga o'rgatish.

Musiqani o'quvchilar tomonidan to'liq idrok etilishi muayyan psixologik muhitga bog'liqdir. Ya'ni o'quvchilarda sodir bo'ladigan hissiy kechinmalar turli yoshda turlicha sharoit va yondashuvlarni talab qiladi. Shunga ko'ra ularni qiziqtiradigan, diqqatlarini jalb etadigan sharoitni yaratish ularda estetik hissiyotning, o'stirishning muhim shartidir. Bularni ta'kidlashdan maqsad bunday natijaga erishish yuqorilarda bir muncha qiyin yechadigan psixologik jarayondir.

Musiqiy did, musiqiy dunyoqarashning shakllanishida darsdan tashqari ishlarning qay darajada yo'lga qo'yilganligi, o'quvchilarning yashash sharoitlari, oiladagi muhim, oilaning musiqaga bo'lgan munosabati g'oyat muhimdir.

Bunday shart – sharoit va imkoniyatlarni vujudga keltirish uchun musiqa o'qituvchisi quyidagi ishlarni amalga oshirishi lozim:

1. Ta'lim – tarbiya jarayonining hamma qismlarini uzviy bir maqsadga yo'naltirish;

2. Tashkiliy mazmunli ish;

3. Aloqa ishlari – o'qituvchining dars jarayonida o'quvchilar bilan muloqoti, shuningdek, maktab pedagoglar jamoasi, ota – onalar va jamoatchilik bilan o'zaro hamkorligi;

4. Ta'limiy – tarbiyaviy jarayonning rejasini amalga oshirishga doir tashkiliy ishlar (o'zining bayonini o'quvchilarning hatti harakati va faoliyatini, ta'lim – tarbiya jarayonining har xil shakllarini uyushtirish);

5. Har bir o'quvchidagi o'zgarishlarni o'g'il va qiz bolalarni umumiy hamda maxsus kamol toptirish vazifalarini belgilash va izchil rivojlantirishdan iborat ishlar;

6. O'quvchilarda ijtimoiy – ahamiyatli qadriyatlarni muayyan tizimini: g'oyalar, qarashlarni shakllantirishga, ehtiyojlar, qiziqishlar, didlarni tarbiyalashga, faoliyat va hatti – harakat sabablarini, dunyoqarsha va dunyoni his etishni belgilashga doir yo'naltiruvchi ishlar;

7. Pedagogik jarayonlar hamda ularni yanada takomillashtirish bo'yicha izlanishlar. Bu o'rinda pedagogik jarayon va kasbiy tayyorgarlik o'qituvchidan quyidagilarni talab qiladi:

A) o'quvchilarning qobiliyatlari musiqiy o'zlashtirishlarini nazariy bilimlarni o'zlashtirish dinamikasini o'rganib borishni;

B) o'qitishni qiziqarli va samarali usullarini hamda ularni muvaffaqiyatli qo'llash sharoitlarini yaratishni;

V) dars ishlanmalari, kerakli vositalarni tayyorlashni;

G) o'z ishini, tajribalarini tahlil qilib borishni;

D) muntazam ravishda pedagogik kuzatishlar va tajribalar olib borish, o'quvchilarni amaliy faoliyatga ko'proq jalb qilish.

Ushbu ishlarni barchasi o'ziga xos pedagogik shart – sharoitlarni aniq maqsadga yo'naltirilgan holda tashkil etish musiqa mashg'ulotlarini muvaffaqiyatini ta'minlashda ijobiy ahamiyat kasb etadi.

II BOB: Vokal – xor malakalari vokal – xor tarbiyasining asosi sifatida.

2.1. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchilarning vokal – xor malakalarini shakllantirish yo'llari.

Musiqqa darslaridagi jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchilarni vokal uslubida kuylashga o'rgatish, bu boradi yetarli darajada kutilgan natijalarga erishish ko'p jihatdan vokal mashq yoki asarni (qo'shiqni) o'qituvchi tomonidan vokal talablari asosida chiroyli va ifodali kuylab berilishiga bog'liqdir. Chunki, o'quvchilar muayyan holatda o'qituvchiga taqlid qilib kuylashga intiladilar. Bu o'rinda musiqqa sozi va jo'rnavozlik ijroni tayanchi, suyanchi bo'lib, bolalar tomonidan o'qituvchi ko'rsatmalarini o'qituvchi ovozigga o'xshatma qilib kuylashlariga zamin yaratadi. Shunday holatda o'qituvchi o'quvchilarni har birini eshitish (musiqiy sulxi) qobiliyatini o'rganib borish, shunga muvofiq sinfda ularni joylashishlariga ham e'tibor berib, ma'lum rejagi solib borishi lozim bo'ladi. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar bilan olib boriladigan vokal – xor ishlari ko'pincha o'qituvchi ovozigga taqlid qilib kuylashga asoslanadi. Bu holatda juda ko'plab mutaxassislar, pedagog, psixolog, olimlar tomonidan ta'kidlangan. Shuning uchun ham qo'shiqni dastlabki o'rganishga kirishishdan o'qituvchining o'zi yoqimli va ifodali kuylab berishi va o'quvchilarni shunga monand kuylashlari ustida ish olib borishlari kerak. Bu, eng avvalo, ularga bir tovushni mayin ovozda cho'zib kuylashga o'rgatishdan iborat. Bunda istalgan bir nota tovushini yoki so'z bo'g'inlarini kuylash va o'quvchilardan uni qaytarishlarini so'rash, kichik mashqlarni (bir, ikki taktli) so'z yoki "lya," "ma", "na", "do", "da", "zu" bo'g'inlarida kuylash va o'quvchilarni jo'rli va jo'rsiz kuylatish (qaytarishlari) kerak. Kichik yoshli bolalar ovozini "falset" yangrashini unutmagan holda o'qituvchi mashq va qo'shiq

jumlalarini kuylab ko'rsatib berayotganda o'zi ham shunday kuylashi kerak bo'ladi.

Boshlang'ich (birinchi sinfda) sinflarda bolalarni mayin atakada kuylashlari ovozning muloyim va yoqimli bo'lishini ta'minlaydi. Baqirib, zo'riqib kuylash vokal – xor malakalarini to'g'ri shakllanishiga halaqit beradi, ovozigga putur yetkazadi.

1)

2)

3)

Bu mashqda o'qituvchi birinchi jumlani so'zlar bilan kuylaydi, o'quvchilar aynan musiqiy jumlani matnning keyingi satrlari bilan qaytarishadi.

1. O'qituvchi musiqa asbobi bilan chaladi.

2. O'quvchilar so'z bo'g'inida "lya", "na", uni imitasiya qilib kuylashadi.

Xor ijrochiligining muhim sharti bo'lgan soz va jo'rnavozlik (ansambil) da quyidagi jihatlar ustivor o'rin egallaydi. Soz har bir o'quvchi – xonandani musiqa tovushini o'z balandligida kuylay olishiga (intonasiya) asoslanadi. Barcha bolalarning sozga bir xil tushishi intonasion uyg'unlikni (ansambillik) vujudga kelatiradi. Shuning uchun birinchi darsdan boshlab soz ustida muntazam ish olib boriladi. Bu o'rinda ovozi sozga (tonga) tushmaydigan bolalarga e'tibor kuchaytiriladi. Shu jarayon bilan bir vaqtda intonasion, dinamik, ritm va temp ansambllari ham shakllanib boradi. Faqat shundagina sof unison kuylashga erishish mumkin. Yuqorida ta'kidlanganidek ansambillik (soz) ga erishish o'z navbatida o'qituvchini ijroni boshqarish, o'quvchilarni o'ziga ergashtira olishga, dirijyorlik ko'rsatmalariga mimika, artikulyasiya apparati (og'iz ochish, unli – undoshlarni talaffo'z qilish) ishlatishiga bog'liq bo'ladi.

Eng muhimi bolalarni mashq qo'shiqlar so'zini ijro etishda ularni vokal talaffo'ziga monandligiga o'rgatish lozim.

Ashulachilikda unli tovushlarni to'g'ri talaffo'z etishga o'rganish juda zarur. O'qituvchining vazifasi unli tovushlarning kuychan, cho'zib kuylash hisobiga undosh tovushlarni qisqa va aniq talaffo'z etishga erishishdan iboratdir.

Vokal kuylashda bu shunday bo'ladi. Qa – nday gu – lbu.

Vokal – xor mashqlari uchun tanlanadigan mashqlar kichik qo'shiq parchalaridan bo'lsa yanada yaxshiroq bo'ladi. Maxsus tanlangan ixcham va yengil mashq – qo'shiqlar vokal malakalarini, ayniqsa, musiqa soziga tushish va jo'rovoqlikda kuylashda yaxshi samara beradi. Qo'shiqni bevosita o'rganish jarayoni eng payt hisoblanadi. Qo'shiqning so'zlari ohang bilan birga, bir necha dars davomida yod olinadi. Har bir jumla so'zi takrorlangach, o'qituvchi uni chiroyli qilib kuylab beradi, o'quvchilar uni takrorlashadi. Qo'shiqni guruhlariga bo'lib kuylash, ayrim joylarni “solist” lar bilan kuylash mumkin.

Kuyning harakatlanishini o'qituvchi ko'rgazmali qurol yordamida, turli grafik tasvirlarda yoki qo'l harakatlarida, keyingi sinflarda (3 – 4 - sinflarda) nota yozuvlari orqali ko'rsatib berishi bolalarning musiqa asarini yaxshi tasavvur qilishi, tez o'rganib olishi va uzoq vaqt esda saqlab qolishiga imkon beradi.

Shu o'rinda bir qo'shiqni o'rgatishga bag'ishlangan “darsning borishi” qismini keltirib o'tamiz.

Bolalar sinfga “Salom maktab” qo'shig'i sadolari ostida kirib keladilar. Dars boshlangach, o'qituvchi bu qo'shiq haqida, uning muallifi, qo'shiqni g'oyaviy mazmuni haqida gapirib beradi. Shundan so'ng uni o'zi chiroyli qilib kuylab beradi. O'qituvchi qo'shiqning har bir lenerasi, kuyning harakatlanishini o'z ovozida aniq ko'rsatib beradi. Birinchi darsda qo'shiqning birinchi to'rt taktini o'rgatish maqsadga muvofiqdir. Asarni o'rgatishda musiqani bolalar yaxshi eshitishi uchun o'qituvchi ularni yaqiniga borib, yoki pianino oldiga bo'lib chaqirib ishlashi mumkin. Eshituvi sust bo'lgan bolalarni esa oldingi qatorga o'tqazishi, sluxi yaxshi bolalar yoniga o'tqazishi yaxshi natija beradi.

Qo'shiqni dastlabki o'rganishda o'qituvchi bolalarning ijro nuqsonlariga to'xtalmasdan, ko'proq ularni yutuq tomonlarini aytib ularni ruhlantirib borishi va nuqsonlarni ko'proq eshittirish yo'li bilan tuzatib borishi kerak.

Bolalar qo'shiqni ma'lum darajada o'rganib olgandan so'ng kuylashda ta'sirchanlikka, ifodali kuylashga e'tibor qaratiladi.

Umuman olganda xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, darsda vokal – xor ishlarining barcha elementlari

- ovoz sozlash, qo'shiqni o'rganish, kuylash, badiiy – ifodaviy kuylash, 1 – sinfda va keyingi 2 – 3 sinflarda ham asosan o'qituvchi ovoziga, ijrosiga tayangan holda musiqa sozini, kuyning cholg'u ijrosidagi haraktiga moslashib, jo'rnavozlik qilib kuylash orqali amalga oshiriladi.

Ovozni sozlash va qo'shiqni o'rganish jarayoni darsdagi qolgan barcha musiqa faoliyati turlari (musiqa tinglash, musiqa savodi, musiqaga mos harakatlar bajarish, cholg'u asboblarda chalish) bilan uzviy bog'lab olib boriladi. Darsda mantiqiy bir butunlikka erishishning mohiyati ham shundadir.

Ulug' xormeystri P. T. Chesnonov o'zining "Xor va uni boshqarish" nomli kitobida "Vokal kuylash xorning sadosini belgilaydi, bu o'rinda interval va akkordlarni aniq talaffo'zi (intonisiyasi) xor partiyalarini (ovozlar) moslashgan sadosi va aniq rejagi solingan musiqiy talaffo'z, dinamik, temp, ritm, ansambil va asar mazmunini ochuvchi badiiy ifoda vositalari – nyuanislar kabi elementlar tashkil qiladi" – deb uqtiradi.

Ansambl haqiqatda ham xor ijrochiligida asosiy elementlardan bo'lib, tovushlar sadosidagi birlik, aniq temp va ritmda ovozlarning tembiriga ko'ra hamohangligi, xor va jo'r, solst va xor ovozining uyg'unlashuvidar.

Xor ansambili musiqa ansambllarining eng keng va qiyin turlariga kiradi. Ansambl soʻzi (fransoʻzcha ensemble) – birga, yaʼni hamohanglik demakdir.

Ansambl soʻzi hayotda ancha keng maʼnoda ishlatiladi. Musiqada esa ansambl turlicha boʻladi. Ijrochilik turiga qarab ikki xonandadan iborat joʻrlik duet, uch kishi – trio, toʻrt kishi – kvartet, besh kishi – kvintet, olti kishi – sekstet, sakkiz kishi – oktet, toʻqqiz kishi – nontet, oʻn kishi – desimet va boshqalar vokal ansambiliga kiradi.

Bir necha kishining birga qoʻshiq aytishi, yoki musiqa asboblarida kuy chalishi ham ansamblni tashkil qiladi. Shuningdek, musiqa ijrochiligida qizlar vokal ansambli, yigitlar vokal ansambli, har xil instrumental cholgʻu ansambillari mavjud.

Xor va orkestr ham kollektiv ansamblga kiradi. Xorda yoki orkestrda xonandalar va sozandalar guruhlariga boʻlinib, partiyalarni tashkil qiladilar. Alohida bir xor partiyasidagi xonandalarning ovoz tembiri va diapozoni taxminan bir xil (bir – biriga yaqin) boʻlsa, shuning oʻzi xonandalar ansambli boʻladi.

Demak, xor jamoasi vokal ansambllaridan, orkestr va instrumental ansambllardan tashkil topadi, desak xato boʻlmaydi. Bu xususiyat bolalar xor jamoasi uchun ham xosdir.

Xor ansambli ikki asosiy koʻrinishda boʻladi – xususiy va umumiy ansambil.

Xususiy ansambl – maʼlum bir partiyadagi ovozlarning uygʻunligi.

Umumiy ansambl – xordagi barcha ovoz guruhlari, yaʼni partiyalarning qoʻshilishi, yaʼni umumiy jamoalarning hamohang sadosidir.

Xor jamoasida asosiy toʻrt partiya (soprano, alt, tenor, bas) partiyalarining qoʻshilishi va uygʻunligi umumiy ansamblni tashkil etadi.

Demak bolalar xor jamoasi ikki xususiy ansambldan, ya'ni diskantlar va altlar partiyalari uyg'unligidan ansambllardan tashkil topadi.

Xor ijrosida biror bir xususiy partiyadagi ansambllik buzilsa, umumiy ansambllik ham bo'lmaydi. Demak, xor rahbari mana shunga ko'ra har bir partiyani ansamblligiga erishish lozim ekan.

Xor jamoasi katta, kichikligidan qat'iy nazar ansamblga ega bo'lishi zarur. Xor ansamblligi mukammal bo'lishi uchun xor ijrosida quyidagi omillar mavjud bo'lishi kerak:

- gorizontalar intonasiya;
- ovoz tembr;
- ovoz dinamikasi;
- tovushlar cho'zimi, ritm;
- harakat birligi (agogika);

- talaffo'z birligi (diksiya, orfoepiya) va boshqalar. Bular o'z navbatida: intonasiya ansamblligi, soz ansamblligi, tembr ansambli, dinamik ansambllik, agogik ansambllik, diksiya – orfoepik ansambllik, tessitura ansamblligi kabilarni tashkil qiladi.

Xususiy ansambllik: Xor rahbari havaskorlik yoki sinf jamoasini xor sifatida shakllantirar ekan, bolalar ovozini tembr xususiyatiga ko'ra mosligiga va ovoz diapozoniga qarab xor partiyasiga brikirish kerak. Shunda har xil ovoz barpo qilish va chiqarish, nafas olish, talaffo'z va intoniasiyaga erishish oson kechadi.

Yarim ansambl – xordagi ikkita bir turdagi ovoz partiyalarini qo'shilishi va tovushlar uyg'unligi – yarim ansamblni tashkil qiladi. Masalan:

S + A yoki T+B

To'liqsiz ansambl – uch ovoz partiyasining qo'shilishidan hosil bo'ladi. Masalan: ayollar xori (partiyalari 2 ta) va tenor (S +A + T) yoki bas (S + A + B) aksincha T + B + A; T + B + S:

Umumiy to'liq ansambl aralash xordagi hamma (to'rttala) ovoz partiyalaridagi tovush dinamikasining tengligi va uyg'unligidir.

Xorda umumiy ansamblni barpo etish uchun quyidagi shartlarga amal qilish kerak:

1. Har bir xor partiyasidagi xonandalar son jihatdan teng bo'lishiga;
2. Har bir xor partiyasidagi ovozlar sifat jihatdan (tembr) bir xil bo'lishiga;
3. Har bir ovoz partiyasida toza unisonli ansamblga erishish kerak. Xorda ishtirok etayotgan har bir o'quvchi o'zi mansub ovoz partiyasiga qo'shila olishi, ritmik, temp, diksiya, dinamik birlikka erishishi zarur.

Har xil fakturali asarlarda xor ansambli. Xor asari fakturasiga qarab, unda ansambl turlari ham har xil bo'ladi.

1. Unison yoki oktavali unison ansambl
2. Akkord – garmonik asarlardagi xor ansambli.
3. Polifonik asarlardagi xor ansambli.
4. Xor va solist o'rtasidagi ansambl.
5. Xor, jo'r va solist o'rtasidagi ansambl va hokozolar.

Xorda ansambllik ustida ish olib borganda o'qituvchi asarni yozilishiga qarab, cholg'u asbobi (fortepiano yoki milliy cholg'ular) solist, xor partiyalari uyg'unligiga asosiy e'tiborni qaratishi zarur bo'ladi. Shuningdek asar yozilishida asosiy kuy (mavzu) qaysi partiyada bo'lsa, qolgan partiyalarni sun'iy ravishda ikkinchi darajaga tushurib, ya'ni pasaytirib kuylatishi kerak bo'ladi. Xorda yakkaxon solist ishtirok etganda ham xuddi shunday yo'l tutiladi.


Ba'zi xor asarlarida musiqa sifatlari yetarli darajada bo'lmaydi. Bunday asarlarni xor bilan ijro qilishda dirijyor sun'iy ravishda partiyalar sadosini uyg'unlashtiradi. Bunga sun'iy ansambl deyiladi.

Polifonik asarlardagi xor ansambilida xor partiyalari har xil ahamiyatga ega bo'ladi. **Misol:**

L I B Ye D

Medlenno

Shatelika musiqasi





Xor va solist o'rtasidagi ansamblga misol:

A L L A

Sekin. solo

A. Muhammadov musiqasi



Mazkur band bo'yicha xulosaviy fikrlarimiz shundan iborat bo'ladiki, vokal kuylashga erishish ancha murakkab psixologik va pedagogik jarayonni talab qiladi va bu o'rinda musiqa o'qituvchisining vokal – xor tayyorgarligiga va ish tajribasi hal qiluvchi omil hisoblanadi.

2.2. O'quvchilarning vokal – xor tarbiyasini shakllantirish yuzasidan amaliy tajriba ishlari mazmuni.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida olib boriladigan musiqiy ta'lim va tarbiya faqat qo'shiq aytish yoki musiqa tinglash, nazariy ma'lumotlarni egallash bilan cheklanib qolmasligi kerak. Bu o'rinda eng oliy maqsad o'quvchi – yoshlarga turli mavzulardagi qo'shiqlarni o'rgatish, vokal – xor kuylash ko'nikma va malakalarini hosil qilish bilan ularni estetik madaniyatini tarkib toptirishdan iboratdir. Hayotni estetik idrok qilish, milliy musiqiy meros va milliy qadriyatlarga mehr – muhabbat uyg'otish, chinakkam ijod namunasi bo'lgan asarlarni qadriga yetish, yengil – yelpi qo'shiqlar bilan mumtoz va maqom singari yetuk asarlarni, shuningdek kompazitorlik janrlariga oid asarlarni farqlay bilish, asarga baho bera olish qobiliyatlarini shakllantirish lozim. Shuning uchun qo'shiq kuylash faqat sinfda olib boriladigan “jamoaviy ijrochilik” faoliyati bilan cheklanib qolmasligi kerak.

Vaqt hajmini nihoyatda kamligi, ya'ni bir haftada 1 soatlik musiqa darslarida o'quvchilarni yetarli vokal – xor malakalarini egallashlari, qo'yilgan maqsadga erishish nihoyatda mushkuldir. Shunday ekan maktablar o'quv rejasi va dasturiga xor bo'lib qo'shiq kuylash faoliyati yetakchi faoliyat sifatida kiritilgan ekan, bu ishni sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda izchil va uzviy tarzda tashkil qilish bugungi kunda muhim masalalardandir.

Hozirgi kunda bolalar xor ijrochiligining yangi – yangi shakllari mavjud. Bular:

1. Bolalar xor to'garaklarini, (maktabda, sinfdan tashqari o'tiladigan to'garaklar).
2. Bolalar xor studiyalari.
3. Bolalar ijodiyot markazlarida tashkil etiladigan xorlar;
4. Bolalar musiqa va san'at maktablarida tashkil etiladigan xorlar;
5. Madaniyat muassasalari qoshida tashkil etiladigan bolalar, o'smirlar xorlari;

Maktabda bolalar xor ijrochiligi san'atining asosiy shakli musiqa darsidagi jamoaviy ijrochilik va sinfdan tashqari tashkil etiladigan xor to'garaklaridir.

Musiqa darsining o'ziga xos tomoni shundan iboratki, darsda ta'limiy vazifalardan tashqari badiiy ijrochilik vazifalari ham qo'yiladi. Bu birinchi navbatda maktabda musiqadan ta'lim berishning faol shakli bo'lgan xor bo'lib qo'shiq aytishga taaluqlidir. Xor bo'lib qo'shiq aytish darsda olib boriladigan o'quv tarbiyaviy ishlarning xilma – xil shakllarini: vokal kuylash, musiqa savodi, musiqaviy idrokni, musiqa asboblari chalishni, vokal improvizatsiyani o'zida birlashtiradi.

Ma'lumki, xor bo'lib kuylash vokal kuylashga asoslanadi. Shuning uchun ham xor jamoasi qanday tur va tipda bo'lishidan qat'iy nazar, xonandalarda vokal kuylash ko'nikmalarini hosil qilish ham ancha murakkab va ko'p qirralidir. Ashula va xorda olib boriladigan vokal ishlarining maqsadi ijrochilarda to'g'ri kuylash malakalarini hosil qilishdir. Bunda quyidagi jihatlarga asosiy e'tibor qaratiladi.

- vokal xor ijrochiligining muhim elementlari ustida ishlash, yaxshi soz, ansambllik, so'z talaffo'zi, badiiy ifoda vositalarini egallash;
- to'g'ri nafas olish, vokal tovushini barpo qilish va uni shakllantirish;
- jamoa a'zolarini bir xil vokal malakalariga ega qilish.

Ashula va xor ijrochiligidagi vokal texnikasini yaxshi o'zlashtirmas ekan unday ijroda na uyg'unlik, na tiniq soz, talaffo'z va badiiy ifoda bo'ladi. Shuning uchun ashula va xor ijrosida har doim vokal xor texnikasini rivojlantirish va takomillashtirib borish zarur.

Shu o'rinda vokal – xor tarbiyasining asosiy jihatlariga qisqa – qisqa tarzda to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz:

1. Qo'shiq aytish ko'rsatmasi;

Qo'shiq kuylashda xonandalar ma'lum holatda bo'lishlari ham muhim hisoblanadi. Bu ikki xil bo'ladi: turib kuylash va o'tirib kuylash. Qo'shiq kuylashda turib kuylash eng qulay holat hisoblanadi. Lekin mashg'ulotlarni boshdan oxirigacha turib o'tkazish xonandalarni jismoniy toliqtirib qo'yadi.

2. Nafas;

Vokal – xor ijrochiligining asosini nafas tashkil qiladi. Chunki, kishi nafas a'zolari orqali nafas oladi, ovoz apparati yordamida ovoz chiqaradi. To'g'ri nafas olish, uni sarflash vokal – xor texnikasini eng muhim jihatlaridan hisoblanadi. Kuylash paytidagi nafas odatdagiga nisbatan farq qiladi. Kuylaganda nafas olish va uni ushlab turish, cho'zish qo'shiqdagi jummalarni cho'zimiga, tovushni dinamikasiga, ritm, temp kabilarga bog'liq bo'ladi. Qo'shiqchilikda nafas olish uch turga bo'linadi.

A) Yuqori ko'krak – bunday nafas olishda nafas olishda nafas ko'krak qismiga olinadi, nafas olinganda kiftlar ko'tariladi. Bu qo'shiq aytish tajribasiga, malakasiga ega bo'lmagan xonandalarda kuzatiladi. Vokal – xor ijrochiligida bunday nafas olish qo'llanilmaydi.

B) Ko'krak – qoringa nafas – bunday nafas olinganda nafas tez sarf bo'ladi, cho'zimli va avjli sadolarni to'laqonli kuylash imkonini bermaydi;

V) Aralash (pastki qovurg'a - diafragma) nafas – bunday nafas olganda ikki biqin kengayadi, qorinni pastki qismi harakatga keladi. Vokal – xor ijrochiligida bunday nafas olish eng maqbul hisoblanadi. Xonandalarni

to'g'ri nafas olishga o'rgatish ham juda qiyin va ma'lum jarayonni talab qiladi va to'garak rahbarining vokal ijrochiligidan yaxshi xabardor bo'lishligini taqazo etadi;

Ayrim xor asarlarida nafas olish paytlari "V" belgisi bilan ko'rsatiladi. Nafasni zanjir usuli, kuy cho'zib turiladigan paytda xonandalarning birdaniga emas, balki navbatma – navbat nafas olishini bildiradi.

3. Tovush hosil qilish:

Tovush – ovoz apparatining mahsulidir. O'pkadan chiqayotgan havo hiqildoqdagi tog'aylar orasida torligan ovoz pardalariga urilib tebratadi va ovoz chiqaradi. Tovushni baland – pastligi, yo'g'on – ingichkaligi, xiqildoq bo'shlig'ini katta kichikligi, tarangligi, qalinligi, til, xalqum, xiqildoq muskullarini qisqarishiga bog'liq bo'ladi.

O'quvchilarni qo'shiq (sinfda xor bo'lib) o'rgatish ularni musiqaviy – estetik tarbiyalashning boshlang'ich bosqichi hisoblanadi. Bu jarayonda avvalo o'quvchilarni har qanday vazifa - topshiriqni tushungan holda bajarishga o'rgatib borish lozim. Jamoaviy ijrochilik faoliyatida o'quvchilarni birinchi navbatda vokal – kuylash, ya'ni vokal – xor malakalari ustida ish olib borish, birinchi mashg'ulotlardan qo'shiq kuylash holati, nafas, tovush hosil qilish va yo'llash, soz, ansambillik haqida zarur tushunchalar berish kerak. Bu o'rinda legato, non legato, piano, pianissimo kuylash, zanjirband nafas olish, dirijyorlik ishoralariga qarab kuylash, "auf takt", ishorani boshlash, ijroni tugallash kabi malakalarni hosil qilish eng muhim hisoblanadi.

Qo'shiq kuylashda eng muhim narsa qo'shiq kuylashga monand ovoz hosil qilishdir. Shuning uchun mashg'ulotlarda bolalar ovozini ehtiyot qilish, qo'shiq kuylash vaqtida tomoqqa zo'r bermaslik, yengil va tiniq ovoz hosil qilish qoidalari bilan tanishtirib borish zarur. Bunda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish o'rinli bo'ladi:

- vokal – xor ijrochiligini eng muhim elementlari – soz, ansambllik, diksiya, intoniasiya, badiiy ifoda vositalari (timp, ritm, dinamika) ustida doimiy ravishda, uzluksiz ishlash;

- nafas, to'g'ri nafas olish, sarflash, vokal tovush barpo qilish;

- o'quvchilar jamoasini bir xil vokal malakalariga ega bo'lishiga intilish.

Shu o'rinda vokal – xor tarbiyasining asosiy elementlariga (qoidalariga) qisqa – qisqa to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz:

1. Qo'shiq kuylash ko'rsatmasi. Bu qo'shiq kuylash holatiga o'quvchilarni o'rgatishni nazarda tutadi. (o'tirib, turib kuylashda gavda, bosh, og'iz ochish holati).

2. Nafas. Vokal – xor ijrochiligining tayanchi nafasdir. Kuylash paytidagi nafas odatdagiga nisbatan farq qiladi. Bu qo'shiq jumlasini cho'zimiga, dinamikaga, ritm, temp kabilarga bog'liq bo'ladi.

3. Tovush hosil qilish. Tovush ovoz apparatining mahsulidir. Ovoz apparati, tomoq hiqildoq, halqum, tanglay, ovoz pardalari, rezanatorlar va har xil mushaklardan iboratdir.

4. Vokal – xor tajribasida “ovoz qo'yish” (postanovka golosa) tushunchasi bor. Bu kuylovchilarni to'g'ri kuylashga o'rgatish demakdir. Bu jarayon murakkab pedagogik jarayon bo'lib, yillar davomidagi vokal – xor ishlarini tizimli olib borilishini taqazo etadi. Tovushni qanday shakllanishi (yumshoq, qattiq), “niqobdor”, “ochiq bo'lishi”, “yarim yopiq” kuylashga o'rgatish bu jarayonda o'zlashtiriladi.

Vokal – xor ishlarida registrlarni tekislash, ohangni yo'llash usullari, (ligato, stakkato, markato, nonligato), shuningdek tovush xujumi kabilar ham juda muhim hisoblanadi.

O'quvchilarni musiqa soziga, o'qituvchi ovoziga va butun jamoaga sozlanishlari, ansambllik (temp, ansambli, dinamik ansambl), talaffo'z

(artikulyasiya) kabilarni yaxshi o'zlashtirishlari jamoaviy ijrochilikni muvaffaqiyatini ta'minlovchi bosh omillar sanaladi. Amaliy ishlar bilan birgalikda o'qituvchi bular haqida tushuntirish, suhbatlar olib borish o'zi amaliy tarzda ko'rsatib, tanishtirib borish kerak bo'ladi. Suhbat davomida qo'shiq kuylash qoidalari va talablarini ifodalovchi tablislalar, fotosuratlar, plakatlarni namoyish qilish bilan har bir holatni o'qituvchining amaliy ko'rsatib berishi katta ahamiyat kasb etadi.

Qo'shiq kuylash jarayonida eng katta muhim jihat – bu repertuar tanlashdir. Chunki, yaxshi va to'g'ri tanlangan repertuar o'quvchilarni badiiy – musiqiy, estetik tarbiyasida muhim jihatdir. Birinchidan turli mavzu va yuqori badiiy – axloqiy mazmundagi repertuar o'quvchilarni badiiy – axloqiy va g'oyaviy tarbiyasiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Yaxshi fazilatlarga, tabiat, hayvonot olami haqidagi tushuncha va tasavvurlarini kengaytiradi. Ularda ona vatanga muhabbat, xalq musiqasi, madaniyati, qadriyatlariga hurmat, uni sevish va hurmat qilish, yutuqlaridan faxrlanish hissini tarbiyalaydi. To'g'ri tanlangan repertuar o'quvchilarni emosional – ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga, badiiy qarashlarini shakllantirishiga, yuqori estetik didlarini, musiqiy sulhi, xotirasi va ta'sirchanlik xususiyatlarini tarkib topishiga yordam beradi.

O'quvchilarni qo'shiq ijro etishlarida ansambl va sozlanishlari asarni g'oyaviy – badiiy mazmunini tushunib ijro etishlari, ya'ni badiiy ijrochilik mahoratlarini egallab borishlariga doimiy e'tibor berib borish kerak. Chunki, musiqa darsi – nafosat darsidir. Chiroyli ovoz, ijro mahorati, yaxshi jo'navozlik, ansambllik, badiiy sayqal o'quvchilarni o'z ijrolaridan o'zlari badiiy estetik zavq – olamlari, huzurlanishlari va ularda qo'shiq kuylashga bo'lgan mayl istaklarini kuchayib borishlariga olib boradi. Bu o'z navbatida badiiy – estetik tarbiyaning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Yuqori ijrochilik darajasiga erishishda har bir o'quvchini individual mahorati

muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa darsida qo'shiq kuylash jamoaviy shaklda namoyon bo'ladi. Butun sinf o'quvchilari bir butunlikni hosil qiladi. Ular bir maqsad atrofida yaxlit birlashadilar. Bu jarayonda bir o'quvchini noto'g'ri kuylashi, ovozini tonga tushmasligi, ovozini ajralib qolishi, ritmik harakatda chetga chiqishi butun jamoa ijrosiga salbiy ta'sir etadi.

Shuning uchun ham qo'shiq kuylash rejasida o'quvchilar bilan individual ishlashga ham e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan vokal talablari o'quvchilarni umumiy nafas olish va organizmdagi qon aylanishini yaxshilanishi ijobiy ta'sir etadi. Chunki, qo'shiq kuylash jarayonida, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talablarni bajarish davomida o'quvchilar ma'lum darajadagi "nagruzka" ta'sirida bo'lishadi. Bu ularni ruhiy, fiziologik jihatdan o'ziga xos "bosim" ni ta'sirida bo'lishiga sabab bo'ladi. Ortiqcha "nagruzka" esa bolalar yurak – asab tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'quv tarbiyaviy ishlarda ovoz gigiyenasi muhim qismlardandir. Musiqa o'qituvchisi bir yilda bir ikki marta bolalar ovozini vrach loringolog ko'rigidan o'tkazib turishlari shartdir.

Maktab o'quvchilarining xor bo'lib konsertlarda qo'shiq kuylashlari eng foydali tarbiyaviy tadbirlardan hisoblanadi. Bunday tadbirlar nafaqat ijrochilarning, balki, tinglovchilarga ham juda muhim tarbiyaviy ta'sir etadi. Chunki bunday tadbirlar o'zidan – o'zi tashkil etilmaydi. Har qanday kecha yoki madaniy ommaviy tadbir biron – bir maqsadda tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilar ko'z oldidan o'sha mavzu bo'yicha dunyoning yangi qirralarini ochilishiga olib keladi. Agar bunday kechalar taniqli shoir, kompazitorlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lsa, ular o'quvchilarga o'sha ijodkor ijodining yangi – yangi qirralarini ochib beradi.

“Ashula bayramlari” turli ko’rik tanlovlarda ishtirok etish esa boshqa jamoalar yutuqlaridan bahramand bo’lish, yaxshi muvaffaqiyatlarga intilish, ijrochilik malakalarini yanada takomillashtirishga ruhlantiradi. Bu o’quvchilarni san’at olamiga yanada mustahkamroq va chuqurroq kirib borishlariga turtki beradi.

O’quvchilar xorining ommaviy – madaniy tadbirlar teatrlarga, konsertlarga jamoa bo’lib tashrif buyurish, jamoa bo’lib dam olishlarni tashkil etish kabilar ham albatta o’quv – tarbiyaviy ishlar maqsadiga qaratilgan holda tashkil etilmog’i kerak. Bular o’quvchilarda jamoatchilik xususiyatlarini shakllanishiga, do’stona, o’rtoqlarcha munosabatlarni qaror topishiga yordam beradi.

Yana bir muhim jihat – bu o’quvchilarni ota – onalari bilan yaqin aloqani yo’lga qo’yish. Ota – onalarning bolalarini musiqiy qobiliyati va maktab xor jamoasidagi faoliyati, qiziqish va iqtidorlari bilan tanishishlari juda muhimdir. Chunki, iqtidorli talantli bolalarga uyda yaratilib beriladigan imkoniyatlar uning kelajagini belgilashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Oiladagi qo’llab – quvvatlash, kerakli narsalar bilan ta’minlashiga, maktab va oila hamkorligini mustahkamlashiga olib keladi. Bularning barchasi har tamonlama rivojlangan shaxsni shakllanishiga kuchli ta’sir ko’rsatadi – asosiy maqsadni ruyobga chiqishini ta’minlaydi.

Qo’shiq kuylash jarayonida eng muxim jihat – bu repertuar tanlashdir. Chunki yaxshi va to’g’ri anglangan repertuar o’quvchilarni badiiy – musiqiy, estetik tarbiyasida muhim jihatdir. Birinchidan turli mavzu va yuqori badiiy – axloqiy mazmundagi repertuar o’quvchilarni badiiy – axloqiy va g’oyaviy tarbiyasiga kuchli ta’sir ko’rsatadi. Ularni dunyoqarashini kengaytiradi, yaxshi fazilatlarga, tabiat, xayvonot olami haqidagi tushuncha va tasavvurlarni kengaytiradi. Ularda ona vatanga muhabbat, xalq musiqasi, madaniyati, qadriyatlariga hurmat, uni sevish va hurmat qilish, yutuqlaridan

faxrlanish qiyosini tarbiyalaydi. To'g'ri tanlangan repertuar o'quvchilarni emosional ijodiy qobiliyatlarini rivojlanishiga, badiiy qarashlarining shakllanishiga, yuqori estetik didlarini musiqiy shuki, xotirasi va ta'sirchanlik xususiyatlarini tarkib topishiga yordam beradi.

O'quvchilarni qo'shiqni ijro etishlarida ansambl va sozlanishlari asarni g'oyaviy – badiiy mazmuni tushunib ijro etishlari, ya'ni badiiy ijrochilik mahoratlarini egallab borishlariga doimiy e'tibor berib borish kerak. Chunki, musiqa darsi – nafosat darsidir. Chiroyli ovoz, ijro mahorati, yaxshi jo'rnavozlik, ansambllik, badiiy sayqal o'quvchilarni o'z ijrolaridan o'zlari badiiy estetik zavq olishlari, huzurlanishlari, va ularda qo'shiq kuylashga bo'lgan mayl istaklarini kuchayib borishlariga olib boradi. Bu o'z navbatida badiiy – estetik tarbiyaning eng muhim xususiyati hisoblanadi. Yuqori ijrochilik darajasiga erishishda har bir o'quvchini individual mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki musiqa darsida qo'shiq kuylash jamoaviy shaklda namoyon bo'ladi. Butun sinf o'quvchilari bir butunlikni hosil qiladi. Ular bir maqsad atrofida yaxlit birlashadilar. Bu jarayonda bir o'quvchini noto'g'ri kuylashi, ovozini tonga tushmasligi, ovozini ajralib qolishi, ritmik harakatda chetga chiqishi butun jamoa ijrosiga salbiy ta'sir etadi.

Shuning uchun ham qo'shiq kuylash rejasida o'quvchilar bilan individual ishlashga ham e'tibor qaratilishi kerak bo'ladi. To'g'ri yo'lga qo'yilgan vokal talablari o'quvchilarni umumiy nafas olish va organizmdagi qon aylanishini yaxshilanishiga ijobiy ta'sir etadi.

Chunki, qo'shiq kuylash jarayonida, o'qituvchi tomonidan qo'yilgan talablarni bajarish davomida o'quvchilar ma'lum darajadagi “nagro'zka” ta'sirida bo'lishadi. O'qituvchi ularni ruhiy, fiziologik jihatdan o'ziga xos “bosim” ta'sirida bo'lishlariga sabab bo'ladi. Ortiqcha “nagro'zka” esa bolalar yurak bosimi tizimiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

O'quv tarbiyaviy ishlarda ovoz gigenasi muhim qismlardandir. Musiqa o'qituvchisi bir yilda bir ikki marta bolalar ovozini vrach loringolog ko'rigidan o'tkazib turishlari shartdir.

Maktab o'quvchilarining xor bo'lib konsertlarda qo'shiq kuylashlari eng foydali tarbiyaviy tadbirlardan hisoblanadi. Bunday tadbirlar nafosat ijrochilarining, balki tinglovchilarga ham juda muhim tarbiyaviy ta'sir etadi. Chunki bunday tadbirlar o'zidan – o'zi tashkil etilmaydi. Har qanday kecha yoki madaniy ommaviy tadbirlar biron – bir maqsadda tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilar ko'z oldidan o'sha mavzu bo'yicha dunyoning yangi qirralarini ochishiga olib keladi. Agar bunday kechalar taniqli shoir, kompazitorlar hayoti va ijodiga bag'ishlangan bo'lsa, ular o'quvchilarga o'sha ijodkor ijodining yangi – yangi qirralarini ochib beradi.

“Ashula bayramlari” turli ko'rik tanlovlarda ishtirok etish esa boshqa jamoalar yutuqlaridan bahramand bo'lish, yaxshi muvaffaqiyatlarga intilish, ijrochilik malakalarini yanada takomillashtirishga ruhlantiradi. Bu o'quvchilarni san'at olamiga yanada takomillashtirishga ruhlantiradi. Bu o'quvchilarni san'at olamiga yanada mahkamroq va chuqurroq kirib borishlariga turtki beradi.

Xor bo'lib qo'shiq kuylash o'quvchilarning diqqat e'tiborini kuchaytiradi, xotirasi, nutqini rivojlantiradi.

Bolalarning ovoz diapozonlari kengayib barqarorlashib boradi, musiqiy kuylash uquvi o'sadi, mutatsiya davri yengil kechadi, qo'shiq matni, turli mavzular, turli tadbir va bayramlarga atalgan qo'shiqlarni kuylash orqali dunyoqarashlarini, yildan – yilga shakllantirib boradi. Jamoa bo'lib kuylash faoliyatida faqat kuylash nazarda tutilmasdan bu jarayonga vokal – xor tarbiyasi va kuylash bilan bog'liq amaliy jarayonda o'quvchilarning diqqat e'tiborini ongliligini, faolligi oshadi, musiqiy xotirasi yaxshi rivojlanadi va o'rgangan qo'shiqlarini ijro etganda undan zavqlanish hissi kuchayadi. Asta –

sekinlik bilan qo'shiqni so'z ma'nosini va musiqa ohangini chuqur idrok etadilar va asar mazmuni orqali hayotni o'rganadilar.

Yuqoridagi bayon etilgan natijalarga erishish uchun jamoa bo'lib kuylash jarayonida quyidagi vokal – xor malakalarini rivojlantirib borish va amal qilish shart. Chunki, aynan vokal – xor malakalari vositasi bilangina yoqimli va ohangdosh, sof xor jarangdorligiga erishi mumkin.

O'quvchilar xorining ommaviy – madaniy tadbirlari – teatrga, konsertlarga jamoa bo'lib tashrif buyurishi, jamoa bo'lib dam olishlarni tashkil etish kabilar ham albatta o'quv tarbiyaviy ishlar maqsadiga qaratilgan holda tashkil etilmog'i kerak. Bular o'quvchilarda jamoatchilik xususiyatlarini shakllanishiga, do'stona o'rtoqlarcha munosabatlarni qaror topishiga yordam beradi. Yana bir muhim jihat bu – o'quvchilarni ota – onalari bilan yaqin aloqani yo'lga qo'yish. Ota – onalarning bolalarini musiqiy qobiliyati va maktab xor jamoasidagi faoliyati, qiziqish va iqtidorlari bilan tanishishlari juda muhimdir. Chunki, iqtidorli, talantli bolalarga uyda yaratilib beriladigan imokniyatlar uning kelajagini belgilashda juda katta ahamiyat kasb etadi. Oiladagi qo'llab – quvvatlash, kerakli narsalar bilan ta'minlashiga, maktab va oila hamkorligini mustahkamlashga olib keladi.

Bularning barchasi har tomonlama rivojlangan shaxsni shakllanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi – asosiy maqsadni ruyobga chiqishini ta'minlaydi.

UMUMIY XULOSALAR

Ta'lim va tarbiyaning barcha sohalarida, insoniyat taraqqiyoti mobaynida to'plangan bilim, tajribalar, nazariy va amaliy ishlar muhim o'rin tutadi. Bu borada nazariya amaliyoti bilan bog'lanadi, uni hayotga tadbiq etishning usul va shakllari doimiy ravishda shakllanib, rivojlanib takomillashib boradi. Bularning barchasi bir – biri bilan shu qadar bog'liqlik, busiz aniq yo'nalishdagi hych bir taraqqiyotni to'liq tasavvur etish mumkin emas.

Musiqqa ta'limi va tarbiyasining ham o'zining nazariy, amaliy. Pedagogik, psixologik va metodik asoslariga egaligi va bular o'z navbatida rivojlanib, shakllanib, davr ruhi, talabiga moslashib kelayotganligini mazmun va mohiyati ham shundadir. Biz mazkur ilmiy – tadqiqot ishimizni bajarish davomida bir qator muammolarga duch keldik va bu o'rinda mavzuga daxldor manbalarni kamligi asosiy sabablardan bo'ldi.

- Musiqqa o'qitish metodikasi, xususan, o'zbek manbalarida xor bilan ishlash amaliyotiga oid uslubiy manbalarni tanqisligi;
- Maktablarda musiqqa darslarini zarur saviyada o'tilmasligi;
- Musiqqa o'qituvchilari vokal – xor tarbiyasi bo'yicha bilim va malakalarini talab darajasida emasligi;

- Makktablarda musiqa darslarini zamon talablari darajasida tashkil etish uchun zarur shart – sharoit va jihozlarni yetishmasligi;

Shulardan kelib chiqib birinchi navbatda quyidagi ishlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz:

1. Birinchi navbatda musiqa o'qituvchilarini xor mashg'ulotlarini to'g'ri tashkil etish, o'quvchilarni jamoaviy (xor) ijrochilikka tayyorlab borishda vokal ishlarini talab darajasida yo'lga qo'yishlariga e'tiborni qaratish;

2. O'quvchilar ovoz xususiyatlarini uning nozik tuzilishi xususiyatlarini, tez o'zgarib turishini nazarda tutgan holda bo'lajak musiqa o'qituvchilari uchun alohida dasturlashtirilgan bilimlar bilan qurollantirish;

3. Jamoaviy qo'shiq kuylash jarayonida vokal kuylash malakalari va ko'nikmalarini to'g'ri shakllantirish uchun o'ziga xos samarali ish shakl va usullarini takomillashgan variantlarini ishlab chiqish;

4. O'quvchilarning umumiy musiqiy va musiqiy – nazariy bilim va malakalariga tayangan holda ish tutish kelgusida ularni san'at sohasida yetuk insonlar bo'lib yetishuvlarida muhim ta'sir ko'rsatishini inobatga olgan holda ish tutish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RUYHATI.

1. I. Karimov. Barkamol avlod orzusi. – Toshkent; Sharq nashriyot matbaa konserti, -1999 yil.
2. I. Karimov. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. – T;- Ma'naviyat. – 2008 yil.
3. O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida” gi qonuni va “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. T; - Ma'rifat, 1998y.
4. Umumiy o'rta ta'limning Davlat Ta'lim Standarti va o'quv dasturi. – T; - Ta'lim taraqqiyoti, maxsus 6-7-sonlar-1999 yil.
5. Sh. Ro'ziyev. Xorshunoslik. – T; O'qituvchi, 1987 yil.
- 6.N. Sharafiyev. Xorshunoslik. – Toshkent, - O'qituvchi, 1988 yil.

7. I. Qudratov. Talabalar va bolalar ashula va xor jamoalarini tashkil etish va ular bilan ishlash metodikasi. – Toshkent, - Fan va texnologiyalar bosmaxonasi – 2006 yil.
8. Sh . Ro'ziyev. Xorshunoslik. – Toshkent, - O'qituvchi, - 1993 yil.
9. Sokolov V. G. Rabota s xorom. M, - Prosvesheniye. 1983 g.
10. Pigrov K. K. Rukovodetva xorom – M; - Музыка 1981 g.
11. Musiqa o'qitish metodikasi. – Toshkent. – TDPU. 2004 yil.
12. 18. R. Qodirov. Boshlang'ich maktabda ko'p ovozli kuylash.-T; - O'qituvchi. -1997 yil.
13. P. Xalabuzar. V. Popov. Metodika muzikalnogo vospitaniya. – M; - Музыка. -1990 yil.
14. Gudknova. Ye, Vasilyeva F, Ashula darsligi metodikasi. -T; O'qituvchi-1974 yil.
15. Estetik tarbiya asoslari. N.Ko'shayev tahriri ostida. –T; - O'qituvchi-1987 yil.
16. Miloslov P. M. Xorovoy krujok. M: - Goskultprosvetizdat, 1962 g.
17. Dobrovolskaya N. N. Vokalno – xorovyy uprajneniya v detskom xore. M : - Prosvesheniye, 1987 g.
18. Shamina L. V. Rabota s samadeyatelnom xorovym kollektivom. M : - Prosvesheniye, 1983 g.
19. A. Hasanov. Maktabda ashula. – Toshkent, O'qituvchi, 1981y.
20. Bolalar xalq cholg'u asboblari orkestiri va ansambillarini tuzish, ular bilan ishlash metodikasi. Metodik tavsiyanoma. – Toshkent: 1987 yil.
21. N. Sharipova. Xorshunoslik. Toshkent: G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiriyoti, 1987 yil.
22. Xor dirijyorligi Xrestomatiyasi. O'zbekiston, - Toshkent, 1976 yil. 1 – qism.
23. Xor dirijyorligi Xrestomatiyasi. O'zbekiston, - Toshkent, 1976 yil. 2 – qism.
24. Quyosh yurtim. Nizomiy nomli TDPU – Toshkent 1999 yil.

25. O'rta Osiy va qozog'iston xalqlari xorlari. : G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiriyoti, 1980 yil.

26. Qo'shiq bizning do'stimiz. Tuzuvchilar S. Abramova, F. Alimov. : G'.G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashiriyoti, 1989 yil.

A. Navoiy nomidagi SamDU “Musiqiy ta’lim” ixtisosligi bitiruvchi kurs talabasi Gafforova Nasiba tomonidan bajarilgan “O’quvchilarniing musiqa madaniyatini shakllanishida vokal – xor tarbiyasining o’rni va ahamiyati” mavzusida Bitiruv Malakaviy ishiga ilmiy rahbar

X U L O S A S I.

Umumta’lim maktablaridagi “Musiqqa madaniyati” darslari o’z tuzilishi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu uning bir qator faoliyatlar birikmasidan tashkil topishda ko’rinadi. Bu faoliyatlar orasida jamoa bo’lib qo’shiq kuylash yetakchi faoliyat sifatida ahamiyat kasb etadi.

Xor bo’lib qo’shiq kuylashga o’rgatish murakkab va izchil mashg’ulotlar davomiyligini talab qiladiki, bunda haftada bir marta o’tiladigan dars jarayonida kutilgan natijalarga erishish g’oyatda mushkuldir. Bunga sabab maktabda tashkil etiladigan vokal - xor to’garaklari bu borada yaxshi samara berishi ilmiy – amaliy jihatdan asoslangan.

Gafforova Nasiba tomonidan bajarilgan mazkur bitiruv malakaviy ishida bu jihatlarga ham mufassal to’xtalangan bo’lsa – da, ishning asosiy maqsadi xor mashg’ulotlarida olib boriladigan vokal – xor ishlari ularning o’quvchilar badiiy – estetik tarbiyasi ta’siriga qaratilgandir. Bolalar bilan vokal – xor mashg’ulotlarini olib borishda bolalarning yosh, individual va fiziologik xususiyatlariga tayangan

holda ish tutish va mashg'ulotlar jarayonida ularni e'tiborda tutish muallifning amaliy faoliyatidagi kuzatuv va tajribalari asosida yoritib berilgan.

Xor bo'lib qo'shiq kuylash jarayonida o'quvchilarni qo'shiqni g'oyaviy – badiiy mazmunini tushunib, badiiy – emosional zavq olib, asarni sevib jo'shqinlik bilan kuylashi, ularni estetik tarbiyasiga ijobiy ta'siri yetarlicha dalillar asosida yoritib berilgan.

Ish kirish, ikki bob, to'rt paragraf, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ruyohatidan iborat bo'lib ishning kirish qismidagi mavzuning musiqa darslari uchun dolzarblik kasb etishi, ishning maqsadi, predmeti, obyekti, yangilik darajasi va ilmiy – amaliy ahamiyati dalillangan.

Ishning birinchi bobida muammoning o'rganilganlik darajasi ilmiy – uslubiy manbalarga tayangan holda tahlil qilingan. Tadqiqotni olib borish tamoyillari, yo'nalishlari aniqlangan.

Ishning ikkinchi bobi mazmunida musiqa darslarini yetakchi faoliyati bo'lishi xor bo'lib kuylash jarayonida olib boriladigan vokal – xor tarbiyasining mohiyati, o'qituvchi pedagogning bu boradagi o'rni, qo'llaniladigan ish usullari va mazkur faoliyatning o'quvchilar musiqa madaniyatini shakllanishiga ijobiy ta'sirini aniqlovchi tajriba – sinov ishlari, uning natijalari o'z ifodasini topgan.

Erishilgan natijalar, chiqarilgan xulosalar ishning ijobiy yechim topganligini va muallifning ilmiy – tadqiqot ishini bajarishga to'g'ri yondashganligidan dalolat beradi. Ish mustaqil bajarilgan, tugallangan va ilmiy yechim topgan. Shu bois uni himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar: katta o'qituvchi M.B. Murodov
A. Navoiy nomidagi SamDU “Musiqiy ta’lim” ixtisosligi bitiruvchi kurs talabasi Gafforova Nasiba tomonidan bajarilgan “O’quvchilarniing musiqa madaniyatini shakllanishida vokal – xor tarbiyasining o’rni va ahamiyati” mavzusida Bitiruv Malakaviy ishiga
T A Q R I Z.

Umumta'lim maktablarining musiqa madaniyati darslarida jamoa bo'lib qo'shiq kuylash faoliyati darsning asosiy, yetakchi qismini egallaydi. Maktabning madaniy hayotida ham bolalar xor jamoasining chiqishlari, ularning turli madaniy – ommaviy tadbirlar, ko'rik – tanlov, konsertlardagi ishtiroki bevosita o'quvchilarning musiqa madaniyati hamda badiiy estetik tarbiyasiga kuchli ta'sir etadi.

Gafforova Nasiba tomonidan bitiruv malakaviy ishi sifatida tadqiq etilgan “O’quvchilarniing musiqa madaniyatini shakllanishida vokal – xor tarbiyasining o’rni va ahamiyati” mavzusidagi tadqiqot ishi mazmunida musiqa darslarining jamoaviy ijrochilik faoliyatida hamda bolalar xor jamoalarida olib boriladigan vokal – xor ishlarining tutgan o'rni va ahamiyati yoritib berilgan. Zero, xor jamoalari, mashg'ulotlaridagi vokal – xor tarbiyasi bilan bog'liq ishlarsiz xor jamoasini tasavvur qilish, jamoaning ijro sifati haqida gapirish mumkin emas. Har qanday jamoaviy ijroni yorqin emosional ta'sirchanligi, yaxshi soz ansambllikka

va ijrochilik mahoratiga ega bo'lishida olib boriladigan vokal – xor ishlari asosiy o'rin tutadi.

Shuning uchun ham muallif o'z ishida masalaning aynan mana shu jihatiga asosiy diqqatini qaratgan va vokal – xor mashqlarini qo'llash, ularning ijro sifatini ta'minlashdagi ahamiyatini amaliy natijalarga tayangan holda isbotlab berishga harakat qilgan. O'quvchilar vokal – xor mashg'ulotlari jarayonida yagona intizom, o'z – o'zina boshqarish, nazorat qilish, ko'pchilikni ijrosini eshitish, o'z ijrosini ko'pchilik ijrosiga muvofiqlashtirish, dirijyor boshqaruviga bo'y singan holda ijro etish malakalarini egallashadi. Turli mavzularda qo'shiqlarni ijro etish jarayonida ularni musiqiy – nazariy savodxonligi, ijrochilik mahorati, ko'nikma va malakalari va shu asosda umumiy musiqiy va estetik madaniyati rivojlanadi.

Gafforova Nasiba mazkur tadqiqotni bajarishiga ilmiy jihatdan to'g'ri yondashgan ish rejalashtirilishi va tadqiqot bosqichlarida olib boriladigan izlanishlar provardida tadqiqo muammosini ijobiy yechimiga erishishligi ta'minlashgan. Chiqarilgan hulosalar va tavsiyalar ilmiy harakterga ega. Ishni tugallangan va mustaqil bajarilgan ilmiy tadqiqot sifatida himoyaga tavsiya etaman.

p.f.n dot.

H.Yu. Yusupov.

A. Navoiy nomidagi SamDU “Musiqiy ta’lim” ixtisosligi bitiruvchi kurs talabasi Gafforova Nasiba tomonidan bajarilgan “O’quvchilarniing musiqa madaniyatini shakllanishida vokal – xor tarbiyasining o’rni va ahamiyati” mavzusida Bitiruv Malakaviy ishiga

T A Q R I Z.

Umumta’lim maktablaridagi musiqa darslarida qo’shiq kuylash faoliyati har doim asosiy va yetakchi faoliyat bo’lib kelgan. Chunki, bu faoliyat o’quvchilarni yalpi qamrab olishi bilan harakterlidir. O’quvchi – yoshlarni qo’shiq kuylashga o’rgatish jamoaviy tarzda, ya’ni xor ijrochiligi negizida tashkil etiladiki, xor ijrochiligi o’z navbatida vokal kuylashga tayanadi. Vokal – xor kuylashga o’rgatishda vokal – xor tarbiyasi yo’nalishida olib boriladigan ishlar murakkab ijodiy jarayonni talab qiladi.

Gafforova Nasiba tomonidan bajarilgan mazkur Bitiruv malakaviy ishini esa vokal – xor tarbiyasining o’quvchilarni musiqa madaniyatini shakllanishidagi o’rni va ahamiyati ilmiy tadqiqiga bag’ishlanganligini o’zi alohida ta’kidlashga loyiqdir.

Vokal – xor tarbiyasi 1 – sinfdan 7 – sinfgacha bo’lgan turli yoshdagi bolalarning o’ziga xos jihatlarini hisobga olgan holda ish tutishni taqazo qiladi.

Gafforova Nasiba esa o’z ilmiy izlanishida ko’proq o’ziga xos yondashuvlar, uslublar kerakli o’rinlarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan

foydalanish bo'yicha o'z fikrlarini ayta olganini ko'ramiz. Bu ayniqsa ishning apparatida, 2 – bobdagi amaliy ish tajribalari, erishilgan natijalar bo'yicha tahliliy xulosalar va ishlab chiqilgan tavsiyalar mazmunida ishonchli tarzda asoslab berilgan.

Shuningdek, muallif o'zi bevosita o'rgangan ilmiy – adabiyotlardagi mavzu bo'yicha fikr – mulohazalar va ilmiy dalillarga ham imkon qadar o'z munosabatini bildirib o'tishga harakat qilganki, bu ning ishga mustaqil va ijodiy yondashganligidan dalolat beradi. Shu o'rinda jamoaviy ijrochilik jarayonida bolalar ovozi bilan ishlash, tavsiya etiladigan amaliy mashqlar, ish uslublari har bir maktabdagi mavjud shart – sharoit hamda musiqa ta'limini qay darajada yo'lga qo'yilganligi nuqtai – nazaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqilganda yanada yaxshi bo'lar edi. O'ylaymizki, **Gafforova Nasiba** ilmiy yo'nalishdagi faoliyatini mazkur ish bilan cheklab qolmaydi. Malakaviy bitiruv ishidagi kuzatilgan kamchiliklarni kelgusida ilmiy izlanishlarida e'tiborga oladi.

Ish mazmuni chiqarilgan xulosalar va tavsiyalar **Gafforova Nasiba** o'ziga xos ilmiy iqtidorga ega ekanligidan dalolat beradi. Shundan kelib chiqqan holda u tomonidan bajarilgan mazkur tadqiqot ishini himoyaga tavsiya etaman.

Samarqand 1-son pedagogika kolleji
musiqa o'qituvchisi:

N. B. Boltayev